Katta ahamiyatga nutq madaniyati, yaxshi diksiya, jumlar emotsional, ammo aniq qurilishi, stilistik va grammatik xatolar mavjud bo‘lmasligi, ravon gapira olish xususiyatiga ega bo‘lishi. Mimika va ishoralar nutqni jonlantiradi, uni emotsional jihatdan to‘laroq qiladi. Murabbiy o‘z nutqini yumor, hazillar bilan boyitishi lozim. Kommunikativ imkoniyatlar, murabbiy va shogird bilan yaxshi muloqot o‘rnatish imkoniyatini beradi. Murabbiy kommunikativligi uning pedagogik taktida, yosh sportchilar bilan yoki ularning orasida konfliktarni bartaraf eta olishda yorqin nomoyon bo‘ladi. Kommunikativ imkoniyatlarda katta ahamiyatga empatiya, ya’ni boshqa shaxslar xissiyotlariga javob bera olishga ega. Kommunikativ imkoniyatlar nafaqat yosh sportchilar bilan muloqotda, balki bolalar sport guruhlarini bilan tarbiyaviy ishga jalb etilgan boshqa shaxslar orasida kuzatiladi. Tashkiliy imkoniyatlar, murabbiyda yosh sportchilar hayotini, o‘qish, mehnat, dam olish, jamoa ichidagi munosabatlarni o‘rnata olishni tashkillashtirish sifatida nomoyon bo‘ladi. Ular sirasiga holatni baholay olish va ularning bajarilishini nazorat qila olish va shaxsiy sifatleri qator kompleksiga bog‘liq (fikrlash tezligi va mantig‘i, ustamonlik, chiniqish, talabchanlik, o‘smirlar tarbiyasi uchun ma’suliyat). Akademik imkoniyatlar (ilmiy tadqiqotlarga imkoniyatlar, shaxsiy tajriba umumlashtirilishi) murabbiy uchun psixologiya va pedagogika sohasida doimiy tajriba orttirish, faoliyatiga ishning ilmiy-tadqiqot uslublarini tadbiiq etish uchun zarur.

Mazkur klassifikatsiyadan kelib chiqqan holda, murabbiy qator quyidagi funksiyalarni bajaradi: Kommunikativ funksiyalar. Murabbiy o‘z shogirdlari, ularning qiziqishlari, imkoniyati, xarakteri, otaonasining bolalar sporti bilan shug‘illanishga munosabatini bilish kerak; shogirdlari bilan umumiy til topa olish, sportchi ma’naviy ko‘rinishi haqida maxsus suxbatlar o‘tkazish, umumta’lim maktabi, institut, ishlab chiqarish, oila bilan aloqada bo‘lishi, madaniy, ommabop ishlarini amalga oshirish, doimiy ravishda e’tiborni sportchiga qaratish. Tashkiliy funksiyalar. Bir necha yo‘nalishga bo‘linadi: saralash funksiyalari, o‘quv-mashg‘ulot funksiyalari, rejalashtirish funksiyalari, o‘quv-mashg‘ulot jarayoni ustidan nazorat, hakamlk va sekudantlik.

Saralash funksiyalari tarkibiga quydagi bilimlarni oladi: organizim rivojlanishi asosiy qonuniyatlari -marfalogik, fizalogik, ruhiy, jismoniy; sportchi model tavsiflari; saralash prinsipi vositalari, formalari va saralash usullari; erta ixtisoslashtirish boshlanishi paytda. Shu bilan birgalikda quyidagilarni ham bajara olish lozim: sport natijalarini oldindan bilish va tahlil eta olish; boshlang‘ch tayyorgarlik guruhlariga salohiyatli bolalarni saralash; o‘quv-mashg‘ulot guruhlarini, sportni rivojlantirilishi guruhiga bolalarni saralash usullaridan foydalanish. Murabbiy o‘quv mashg‘ulot funksiyalari o‘qtirish va rivojlantirish prinsiplari, vositalari, formalari va uslublarini nazarda tutadi; maxsus atamalarni bilish; shogirdning maxsus imkoniyatlarini, xarakteri, intellektual darajasi ijodiy fikrlash darajasini aniqlash, mashg‘ulot ishlarini bajarishga nisbatan munosabat. Murabbiy ratsional texnika va taktikani o‘rgata bilish; sportchining jismoniy, ruhiy holatini shakillantirib rivojlanganlik darajasini aniqlay olish kerak.

Rejalashtirish funksiyalari effektivligi tayyorgarlik maqsadi haqida bilim, uning bosqich va davrlari maqsad vazifalari yechilishi uchun mos bo‘lgan vosita va usullarini belgilash imkoniyatini beradi. O‘quv-mashg‘ulot jarayoni ustidan nazorat funksiyasi sportdagi boshqarish va nazorat vositasi va usullari qo‘llanilishini ko‘zda tutadi. Hakamlar funksiyasi musobaqa qoidalarini bilish va zaruriy paytda hakamlar ishining istalgan bosqichda hakamlar majburiyatini bajarishda nomoyon bo‘ladi. Sekundantlik funksiyasi, murabbiy tomonidan shogirdlarni, ularning salbiy va ijobiy xususiyatlarini, emotsional holatning tashqi ko‘rinishlarini, startdan oldingi turli ruhiy holatlar belgilarini va ularni boshqarish usullarini yaxshi bilishda nomoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqot funksiyasi tadqiqot vosita va usullari to‘g‘ri qo‘llanilishi; olingan ma’lumotlarni fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda qayta ishlashni ko‘zda tutadi. Ginostik funksiyalar. O‘z professional majburiyatlarni amalga oshirish uchun murabbiy muayyan pedagogic imkoniyatlarga ega bo‘lishi, bu imkoniyatlar uning shaxsiy xususiyatlari orttirilgan bilim va tajribasi tomonidan belgilanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Bergot. Volleyball of the highest level. Moskva, 2007.
2. Belyaev A.V. Training in the technique of playing volleyball and its improvement. Moskva, 2008.
3. Volkov L.P. Theory and methodology of children and youth sports. Kiev, 2002.
4. -Godik M.A. Physical training of football players. Moskva, 2006.
5. Gari pov A.T., Kleshev Yu.Yu., Fomin E.V. Speed power training young volleyball players. Moskva, 2009.

SPORT TURLARIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA SIFAT DARAJASINI OSHIRISH VOSITALARI

Isoqov Jamshid Zikrullayevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta’lim

kafedrası katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada sport turlari mashg‘ulotlarni tashkil etish va sifat darajasini oshirish vositalari taxlil etilgan bolib, maqola songida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sport, natija, tarbiyalash, maqsad, sog‘lik, yuqori sifat, jismoniy, ruhiy, texnika, shaxs

ABSTRACT

The article analyzes the means of organizing and improving the quality of sports training, and at the end of the article offers suggestions and recommendations.

Keywords: sports, result, upbringing, purpose, health, high, quality, physical, mental, technical, personality

Sport mashg‘ulotlari pedagogik hodisa bo‘lib, mashq qilish usuliyatlari, tizimi yordamida bevosita yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan va jismoniy tarbiyaning ixtisoslashgan jarayonidir. Shuni ta’kidlash muhimki, sport pedagogika nuqtai nazaridan birdan-bir maqsad bo‘lmasdan, tarbiyalash, sog‘lomlashtirish va hayotga tayyorlashning vositasidir. Sport mashg‘ulotining vazifalari: sog‘likni mustahkamlash va ma’naviy tarbiya talablari, shaxsni har tomonlama garmonik rivojlantirish; sport texnikasi va taktikasini egallash; tanlangan sport turiga xos jismoniy, ruhiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish, sport gigienasi va o‘z-o‘zini

nazorat qilish sohasida amaliy va nazariy bilimlarni egallashdan iborat. Sport mashg‘uloti davomida faqat yuqori mahoratnigina egallamasdan, sog‘ligini mustahkamlash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, serunum mehnat va himoyasi uchun zarur bo‘lgan hayotiy zaruriy malakalarni egallash vazifalari hal qilinadi.

Yuqori natijalarga erishish uchun jismoniy tarbiyaning barcha vositalari jismoniy mashqlar, gigienik omillar va tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari, shuningdek, mashg‘ulotlar davomida vositalarning keng ishlab chiqilgan tizimi qo‘llaniladi. L.P. Matveev sportchilarning yutuqlariga qarab sport turlarini trenirovka vositasi sifatida 5 guruhga ajratadi.

1. Yakka kurash, yengil va og‘ir atletika, sport o‘yinlari, gimnastika va boshqa sport turlari.
2. Matotsikl, avtomobil, samalyot, qayiq kabi texnik vositalari.
3. Miltiq, kamon kabi nishonga olish sport turlari.
4. Aviomodellar, avtomodellar singari konstruktorlik sport turlari.
5. Shaxmat, shashka, yangi ma’naviy sport turlari.

Barcha vositalar musobaqalash va tayyorlov mashqlariga bo‘linadi, tayyorlov mashqlari o‘z navbatida maxsus tayyorlov va umumtayyorlov mashqlarini o‘z ichiga oladi. Musobaqalashish mashqlari – bu sport turiga xos bo‘lgan va to‘liq muayyan sport turining talablariga binoan bajariladigan yaxlit harakat faoliyatidir. Ko‘pgina musobaqalashuv mashqlari harakat tuzilishi bo‘yicha cheklangan va qisqa yo‘nalishiga ega bo‘ladi; bular monostrukturni mashqlardir. Bunga tezkorlik kuchini talab qiladigan mashqlari (sakrashlar, uloqtirish, og‘irlikni ko‘tarish, sprint) va chidamlilikni talab qiladigan submaksimal, katta va o‘rtacha zo‘riqish bilan bajariladigan ssiklik (yugurish, suzish va boshqa)harakatlari kiradi.

Musobaqalashuv mashqlarining kompleksi – doimiy mazmunga ega bo‘lgan ikki kurash va ko‘pkurashlardan iborat. Bir turdagi ko‘pkurashlarga konkida yugurish to‘rtkurashi, tog‘ chang‘isi uchkurashi kirsas, turlari ko‘p kurashlarga yengil atletika o‘nkurashi, zamonaviy beshkurash, chang‘i ikki kurashi, «Alpomish» va «Barchinoy» ko‘pkurashlari kiradi. Trenirovkada musobaqalashish mashqlari asosiy o‘rinni tutadi,

chunki ular yordamida sport klassifikatsiyasi bilan belgilangan maxsus talablarning majmuyi yaratiladi. Biroq, bu kompleks mashg‘ulotlarda nisbatan kam qo‘llaniladi. Chunki ular organizmni tez charchatadi, har doim ham samarali bo‘lmagan stereotiplarni mustahamlanishiga sabab bo‘ladi vah.k. Musobaqalashish mashqlari mashg‘ulotlarda katta variativligi bilan ajralib turishi zarur. Maxsus tayyorgarlik mashqlari musobaqalashish harakatlarini shakli va xarakteriga o‘xshash harakatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, yengil atletikachilarda muayyan masofaning ajratilgan qismlari bo‘yicha yugurishi, musobaqalashish kombinatsiyasining elementlari va bo‘laklarini yoki imitatsiya mashqlarni bajarishi shular jumlasidandir. Mashqlar tanlab olingan musobaqalashish mashqi bilan qandaydir yaxlitlikka ega bo‘lgan taqdirdagina maxsus tayyorgarlik mashqlari darajasida bo‘lishi mumkin. Sport mashg‘ulotining qayd qilingan vositalari faqatgina jismoniy vositalar bo‘libgina qolmay, balki sportchini texnik, taktik va irodaviy tayyorlash vositasihamdir.

Yuqori sport mahoratiga erishishga qaratilgan barcha vositalar sport mashg‘uloti usuliyatlariga kiradi. Harakat faoliyatiga o‘rgatish usuliyatlari jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasining umumiy asoslaridan bizga ma’lumdir. Bu yerda ularni sport mashg‘ulotlariga nisbatan aniqlashtirishga to‘g‘ri keladi. Usuliyatlarning asosiy maqsadi harakat malakalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Sport mashg‘ulotida belgilangan vazifalariga ko‘ra, qat’iy reglamentlashtirilgan mashq usuliyatlarining turli xil variantlardan foydalaniladi. Trenirovka mashg‘ulotlaridagi harakat malakalarini takomillashtirish jarayonida standart va almashtirib mashq qilish usuliyati keng qo‘llaniladi. Harakat sifatlarini va organizmning funksiyalarini takomillashtirishda maqsadga muvofiq tanlangan mashqlar kompleksi, interval mashq qilish usuliyatini (navbatdagi nagruzkalar orasida belgilangan vaqtda dam olish), uzluksiz mashq qilish (dam olinmasdan mashqlar kompleksi uzluksiz bajariladi) va yuqorida qayd qilingan turli xil usuliyatlar qo‘llaniladi.

Bir usuliyatning o‘zi keng vazifalarni hal qilish va sportchini tayyorlashda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin, masalan, yugurishda o‘zgaruvchan mashq qilish usuliyati yordamida bir vaqtning o‘zida chidamlilikni tarbiyalash, yugurish texnikasini takomillashtirish, masofa bo‘ylab kuchni taqsimlashning taktik variantlarini mashq qilish mumkin va hokazo, ya’ni bir usul orqali sportchining jismoniy, texnik va taktik tayyor-garligini amalga oshirish mumkin. Qat’iy reglamentlashtirilgan usuliyatdan tashqari sport mashg‘ulotida musobaqalashish va o‘yin usuliyati, shuningdek, doiraviy mashq qilish metodi keng qo‘llaniladi. Musobaqalashish usuliyatining asosini faqat raqib bilan kuch sinash emas, balki o‘z-o‘zi bilan ham musobaqalashish mashqlari ham tashkil qiladi. Shuning bilan birga mashg‘ulotga kiritilgan o‘yin usullari yordamida yuqori ruhiy ko‘tarinkilikka erishiladi, fikrlash qobiliyati, qo‘yilgan maqsadga erishish, irodasi va qat’iyyati rivojlanadi. Doiraviy mashq qilish jismoniy mashqlarni qo‘llashning tashkiliy usuliyatining shakli sifatida jismoniy sifatlarning kompleks namoyon qilishni takomillashtirishga qaratilgan.

Mashg‘ulot jarayonlari muayyan sport turida maksimum natijalarga erishishga qaratilgan. Yuqori sport kamolotiga erishish ko‘pqirrali va juda murakkab jarayondir. U sportchining o‘zini har tomonlama funksional, jismoniy, texnik va taktik tayyorlash orqaligina emas, uning natijasining o‘shiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar ta’sirida kam amalga oshiriladi. Bu omillarga birinchi o‘rinda trenerning har tomonlama tayyorgarligini (uning nazariy bilimi, amaliy tajribasi, tashkilotchilik qobiliyati, shuningdek, ilmiy tadqiqot va metodik faoliyatga intilishining bevosita tashqi muhitni, moddiy-texnika, xo‘jalik va meditsina ta’minoti va boshqalarni) kiritish lozim. Shunday qilib, sportchi rekord o‘rnatishida unga yuzlab kishilar yordamlashadi, ular uni shaxs va sportchi sifatida shakllantirishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdullayev A., Rasulov R., Xasanov A. Umumiy o‘rta va kasb-hunar ta’limi tizimlarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar Toshkent 2009. -200. b.
2. Bondarevsky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204 b.
3. Abdullayev A. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
4. Kerimov F.A. “Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Toshkent. ”Zar qalam” - 2004.- 447.b.
5. Abdumalikov R., Yunusov T.T. va boshqalar. «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya taolimining rivojlanishi», metodik tavsiyanoma. T., O‘zDJTI nash, 1992. 6. Sarkizov-Sirazini I.N. «Tansihatlik – tuman boylik», T., «Medisina», 1966. 7. Tursunov U. «Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi», o‘quv qo‘llanma, Qo‘qon, 1992.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Jalolova.Z.S

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta’lim
kafedrası o’qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik maktab yoshdagi bolalarning jismoniy harakatini rivojlantirish uslubiyati ustida ish olib borilgan, olimlarning adabiyotlari o’rganilib, yangi metodika ishlab chiqildi, va kichik maktab yoshdagi bolalarning jismoniy harakatini rivojlantirishga erishildi.

Kalit soʻzlar: jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, moslashuvchanlik, oʻyinlar, harakatchanlik, jismoniy sifatlar.

ABSTRACT

This article examines the literature of scientists who have worked on the methodology of developing physical activity in primary school children, develops a new methodology and achieves the development of physical activity in primary school children

Keywords: physical development, physical training, physical education, flexibility, games, mobility

KIRISH

Kichik maktab yoshdagi bolalarning jismoniy harakati deganda asosan yosh bolalik davridagi jismoniy oʻzgarishlar, oʻsib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama jismoniy tarbiyalash ta’lim-tarbiya muassasalari, oila, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi kuch-gʻayratlari bilan amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya sogʻliqni

yaxshilashga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, Organizmni funksional xolatini yaxshilash, yoshlarni mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlashga qaratilgandir. Bolalarni o‘rab turgan muhit o‘zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o‘yinlar o‘rniga telefon o‘yinlari kirib keldi. Bolani aqliy, estetik, mehnat jismoniy tarbiyasini rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularni ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, harakatli o‘yinlar, sayrlar, tengdoshlari va atrovdagi odamlar bilan muloqot qilishga bolaning vaqti tobora kamayib ketyapti. O‘yin bilan bola faoliyatining boshqa turlari, o‘yinlarning har xil turlari orasidagi muvozanatning buzilishi (harakatli va harakatsiz o‘ynaladigan, alohida va birgalikdagi) kichik maktab yoshdagi bolalar salomatligida ham, harakat sifatlari tashkilotchilik qobiliyatlarining rivojlanish darajasida ham o‘z salbiy aksini topmoqda.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Kichik maktab yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual talanti, ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Kichik maktab yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasini rivojlantirish, muammolarini hal etishning yangi yo‘llarini izlash, birinchidan, ko‘rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usubiy sharoitlarini o‘rganish zarurati bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kichik Maktab yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini rivojlantirish bo‘yicha turli adabiyotlarda bolalarning jismoniy va irodavi harakat tayyorgarligi jarayoni mazmuni bir xil talqin etilmaydi. Masalan, Levi Gorinevskayanining fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun murakkabroq umumjismoniy mashqlar, 1-sinif dasturiga yaqin bo‘lgan va unga tayyorlaydigan mashqlar tanlab olinadi.

Ayni vaqtda kichik maktab ta'lim muassasasidagi jismoniy tarbiya vazifalarida kichik yoshlardan boshlab jismoniy sifatlarni maqsadli yo'naltirish zarurati to'g'risidagi mulohazalarning yo'qligi e'tiborni tortadi. Faqat tayyorlov guruhi uchun dasturda chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va kuchni takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi haqidagi muayan eslatma paydo bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar organizmi ikkita muhim xususiyatga ega, ularni bilish maktab o'qtuvchisiga jismoniy sifatlarni tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli yechish imkonini yaratadi .

Kichik maktab yoshidagi bolalarda yurush, yugurish, sakrash, uloqtirish, konkida yurush yugurush, suzush hayot uchun kerak bo'ladigan eng oddiy harakat malakalarni rivojlantirishdir. Bu harakatlarni bolalar tez o'zlashtiradi, sababi-ularning asab tizimi yuqori darajada egiluvchandir. Kichik maktab yoshidagi bolalarga mashq berishdan oldin ularga o'sha mashqlarni ahamiyati, bajarish texnikasi, harakatli o'yin qoidalari tanani tarbiyalashni ayrim elementlari haqida tushuncha berib borish lozim. Mazkur maqsadni ro'yobga chiqarish uchun ularda, odatda, jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlardan iborat bo'lgan keng o'quv materialini taqdim etilgan.

NATIJA

Pedagogik tajribani rejalashtirish va uning mazmuni kichik maktab yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasini rivojlantirish ustidagi tajribalarni rejalashtirish 2- ilovada takdim etilgan bo'lib sxema asosida amalga oshirildi. Va to'rt hafta mobaynida kichik maktab yoshdagi bolalar shu maqsadda maxsus harakatli o'yinlarni izchillik bilan bajardilar, Va ular jismoniy harakat orqali jismoniy tayyorgarligini uyg'unlashtirishgan edi. Masalan tezkorlik qisqa masofaga yugurish davomidagi harakat suratining tempi o'stirildi. To'rt hafta mobaynida bolalar jismoniy tarbiya orqali jismoniy harakatining rivojlantirishga qaratilgan harakatli o'yinlarni kamida 12 marta bajardilar Statistika ishlov berish natijasida 7-8 yoshli bolalar tomonidan nazorat mashqlarining bajarilish ko'rsatkichlarini testlash nazariyasi talablariga muvofiq, ravishda ularning jismoniy tayyorgarligi holatni baholash uchun qizlar va o'g'il bolalardan iborat ikkita yosh guruhlarining har biri uchun 4 ta test tanlab olindi. Har bir yosh - jins guruhida testlar mazmuni alohida xususiyatlarga ega edi. Masalan, 7

yoshli qizchalarning egiluvchanligini tavsiflash uchun quyidagi testlardan foydalanildi:chalqancha yotgan holda gavnani ko`tarish ; 7 yoshlilar uchun oldinga orqaga umbaloq oshish; 8 yoshlilar uchun 30m ga yugurish; 8 yoshlilar uchun ko`prik hosil qilish. Demak, barcha yosh guruhlari uchun berilgan testlar egiluvchanlik va tezkorlikni rivojlantirish uchun. U yoki bu testlarning qo`llanilishi to`g`risida quyida batafsilroq ma`lumot beriladi. Mazkur bobda 41-sonli umumiy o`rta ta`lim muassasasida o`tkazilgan pedagogik tajriba materiallari keltirilgan bo`lib. Nazorat guruhi Honqa tumanidagi 41-sonli umumiy o`rta ta`lim maktab muassasasida tarbiyalanuvchi tengdosh bolalardan iborat edi.

XULOSA

Ushbu makolada kichik maktab yoshdagi bolalarning egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishiga ko`ra rejalshatirilgan harakatli o`yinlardan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlashga yo`naltirilgan pedagogik tajriba materiallari takdim etilgan. 7-8 yoshli bolalarning turli yosh – jinis guruhlarda o`tkazilgan pedagogik tadqiqotlar turli jismoniy sifatlarning takomillashuvi jarayoniga pedagogik tajribaning ta`sir ko`rsatishi xususiyatlarinigina emas, balki ulardagi o`zgarishlarning yosh xususiyatlari jismoniy holati, sog`lig darajasni ham aniqlash uchun imkoniyat yaratib berdi. Agar harakatli o`yinlarni maxsus tanlash asosida jismoniy sifatlarni rivojlantirish ko`rsatkichlari samaradorligi davomiy tahlil qilib ko`rilsa, shunday xulosa qilish mumkin: bunday mashg`ulotlar barcha jismoniy sifatlarning rivojlanishini samarodarligi yaxshilandi. Pedagogik tajriba barcha jismoniy sifatlarning o`zgarishlariga xos tabiiy yosh xususiyatlarini saqlab qolishgina emas, balki ayrim hollarda xatto bu jarayonlarni tezlashtirish ham mumkin bo`lganligini ko`rsatdi. Bu ko`proq chaqqonlik va egiluvchanlikka, eng kam darajada chidamlilik, kuch va tezkorlikka taalluqli bo`lib. Harakat apparatining alohida jismoniy mashqlar ta`siriga bo`lgan yaqqol ifodalangan geteroxron reaksiyasidan dalolat beruvchi ma`lumotlar olindi. Bu shunda namoyon bo`ladiki, hatto turli test topshiriqlari asosida u yoki bu jismoniy sifatning o`zgarishlarini tahlil etishda ham ishonchlilik darajasi juda farqli bo`ldi, alohida hollarda variantlilik koeffitsienti 85%

gacha yetdi: bu kichik maktab yoshdagi bolalar organizmining ko‘pincha tezlashuv jarayoni, hususan asab-mushak apparati rivojlanishining jadallashuvi vaqtida jismoniy mashqlar ahamiyatini chegaralovchi funksional tizimlaridagi qator mexanizmlarning kuchli ta’siri ustida so‘z yuritishga imkon beradi. Shunisi aniqki, 7- 8 yoshli bolalarning asab-mushak apparati hali yetilmagan bo‘lib, u tezkor shakllanish bosqichida. Bundan tashkari, shu hodisaga ham diqqat qilish kerak: bu yoshdagi bolalar yaqol ifodalangan alohida yosh–jins xussiyatlariga ega bo‘ladilar. Bu yoshda bir sifatning rivojlanish diapozoni boshqalarning rivojlanishiga ko‘maklashdi. O‘yinlar jismoniy mashqlar, jismoniy sifatlar, axloqiy tarbiya vazifalarni yechish uchun samarali sharoit yaratib berdi. Bolalarda jismoniy sifatlar bilan harakat ko‘nikma malakalari ham bir vaqtda rivojlanishiga erishildi. Jismoniy sifatning o‘zaro ta’sirini bog‘liqlikda tahlil etish pedagogik tajriba natijasida yuz bergan o‘zgarishlar mohiyatini chuqurroq anglashga imkon yaratdi. Agar mazkur tadqiqotlar ostiga to‘g‘ri chiziq tortsak, pedagogik tajriba tufayli kichik maktab yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish sifatleri orasidagi ishonchli bog‘liqliklar miqdorini jiddiy oshirish mumkin bo‘lgani haqida yuksak ishonch bilan gapira olamiz. Masalan, tajriba guruhining 7-8 yoshli o‘g‘il bolalarida bunday bog‘liqliklar nazorat guruhlaridagidan bunday bog‘liqliklar nazorat guruhlaridagidan etildi 2,9 barobar, qizlarda esa 2,2 barobar, barcha bolalar guruhleri bo‘yicha esa 2,5 barobar ko‘p qayt etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Kerimov.F, Umarov.M. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. Darslik. T. 2005 yil.
2. B.B.Ma‘murov. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. Toshkent “Turon zamin ziyo” 2014.
3. Abdumannotov. A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy xislatlarni shakllantirishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish. Samarqand 1998.
4. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Darslik. Toshkent O‘zDJTI, 2005 yil, 300 bet.
5. Salomov R.S jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati Toshkent 2014 1jild
6. Salomov R.S jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati Toshkent 2015 2 jild

O‘QUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASHNING ILMIY AMALIY ASOSLARI

Lutpullayev.B.I

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta’lim
kafedrası o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘quvchilarning sog‘lig‘ini, jismoniy rivojlanishini mustahkamlash va o‘stirish; Jismoniy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish; Harakatsiz vaqtlarda va harakat paytlarida gavdani to‘g‘ri tutish ko‘nikmalarini shakllantirish; Mehnat va Vatan mudofasiga tayyorlashni amalga oshirish; Jismoniy tarbiya va sport bilan tizimli shug‘ullanishga odatlantirish va bunga doimiy qiziqishlarini uyg‘otish masalalari o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy sifatlari, jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya, sport, harakat faoliyati, amaliy mashg‘ulotlar, gigiyena, psixologik jarayon.

ABSTRACT

In the article, the health and physical development of students is strengthened and developed; Development and improvement of physical qualities; Forming the skills to maintain the body correctly during periods of inactivity and movement; Implementation of labor and homeland defense training; The issues of accustoming to physical training and sports and arousing their permanent interest in it have been reflected.

Key words: Physical qualities, physical exercises, physical education, sport, movement activity, practical training, hygiene, psychological process.

Hozirgi davrda o‘quvchi-yoshlarning jismoniy jihatdan chiniqtirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kundagi asosiy dolzarb masalalardan biridir. Maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasi quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi: O‘quvchilarning sog‘lig‘ini, jismoniy rivojlanishi mustahkamlash va o‘stirish; Jismoniy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish; Harakatsiz vaqtlarda va harakat paytlarida gavnani to‘g‘ri tutish ko‘nikmalarini shakllantirish; Mehnat va Vatan mudofasiga tayyorlashni amalga oshirish; Jismoniy tarbiya va sport bilan tizimli shug‘ullanishga odatlantirish va bunga doimiy qiziqish uyg‘otish; Buning uchun butun jismoniy tarbiya tizimi, ya’ni jismoniy tarbiya darslari o‘quv kun rejimidagi jismoniy tarbiya tadbirlari (jismoniy daqiqalar, darslardan oldin ertalabki gigiyenik mashqlarni bajarish, tanaffus vaqtlarida o‘tkaziladigan mashq va o‘yinlar), darsdan tashqari jismoniy tarbiya ishlarining hammasi birgalikda ta’sir etgan taqdirdagina bu vazifalar ko‘ngildagidek amalga oshirish mumkin.

O‘tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini sanitariya-gigiyena sharoitlariga qat’iy rioya qilgan holda olib borish kerak. Insonni har tomonlama va barkamol rivojlanishi umumiy tizimida maktab yoshidagi o‘quvchini jismoniy tarbiyalash alohida o‘rin tutadi. Aynan mana shu yoshida mustahkam sog‘lik, yuksak ish bajarish qobiliyatiga moslashtiriladi shu yillarda harakatlanish faoliyati hamda jismoniy sifatlarini dastlabki tarbiyalash sodir bo‘ladi.

O‘quvchining jismoniy shakllanishi uning muhim va ma’naviy-irodaviy rivojlanishi, barcha psixik funksiyalari rivojlanishi bilan yaqin bog‘liq bo‘ladi. Bunday rivojlanishda hayotiy sharoitlar va tarbiya muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchining maktab yoshida jismoniy tarbiyaning muhim vazifasi sog‘lig‘ini mustahkamlash, o‘quvchi organizmi funksiyalarini takomillashtirish, uning to‘g‘ri rivojlanishiga, chiniqishiga yordam berish, ish bajarish qobiliyatini oshirish hisoblanadi. Ilmiy ma’lumotlardan harakatlari yetishmasligi o‘quvchilarning faqat sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, balki ularning aqliy ish bajarish qobiliyatlarini ham pasaytirishi, umumiy rivojlanishini ortda qolishi, o‘quvchilarni atrofdagilarga befarq qilishi ma’lum. O‘quvchilar kundalik hayotlarida ham, mashg‘ulotlarda ham ko‘p harakatlanishlari

kerak. Harakatsiz o‘quvchi sog‘lom o‘smaydi. Harakat - bu turli kasalliklarni, ayniqsa, qon-tomir, nafas olish, asab sistemasi kasalliklarini oldini olish demakdir . Harakat-bu samarali davolash vositasi. Maktab yoshida tarbiyalash inson mohiyati shakllanishi umumiy jarayonida juda muhim rol o‘ynashini aytib o‘tish kerak. Uni bu yoshida turli qobiliyatlari ancha jadal rivojlanadi, jismoniy sifatlari shakllanadi, xarakteri belgilari ishlab chiqiladi.

Aynan mana shu yoshida o‘quvchining barkamol rivojlanishi uchun mustahkam poydevorga asos solish kerak. Maktab yoshidagi o‘quvchilarni tayyorlashni tashkil qilishda muvafaqqiyatga erishish uchun maktabda jiddiy pedagogik ishlar olib borish zarur. Mana shu sababli maktab o‘qituvchilari yangi yo‘llarni izlashlari, ma’naviy va jismoniy kuchlarini yetarli rivojlantirish uchun tashabbus ko‘rsatishlari talab etiladi. Bu masalalarni hal etish ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etishga bog‘liq bo‘ladi. Maktab yoshidagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash-jismoniy tarbiya tizimining dastlabki qismlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchining sog‘ligini yuksak darajasi va bo‘lajak katta yoshli inson jismoniy madaniyati poydevorini shakllantirish maktabgacha jismoniy tarbiya natijalari bo‘lib qolishi kerak, va u quyidagilarni o‘z ichiga oladi jismoniy mashqlar va o‘yinlar, chiniqtirish amallari bilan shug‘ullanish istagi va qiziqish hamda shaxsiy gigiyena qoidalariga ijobiy munosabat, kun tartibiga amal qilish-jismoniy madaniyat va sport sohasida o‘quvchilarning dastlabki bilimlari, o‘rganish qiziqishlari va qobiliyatlari-jamoali harakatlarda faol ishtirok etish o‘yinlar, raqs tushish, bayramlar, sport-ommaviy tadbirlar. o‘z tanasi, gavdani to‘g‘ri tutishni kuzatib borishni bilish, o‘z rivojlanishini nazorat qilish-uyushqoqlik, mustaqillik, axloqlilik, o‘ziga xizmat ko‘rsatish va mashg‘ulotlar uchun uskunalarni saqlashga harakat qilish.

Mana shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi birinchi qonuni, Jismoniy tarbiya va sport va Ta’lim to‘g‘risida gi qonunlarini hayotga tatbiq etish bo‘yicha ulkan ishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishdir. Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat siyosatining asosiy maqsadi ularning millatni sog‘lomashtirish, yoshlarni

tarbiyalash, aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sportchilarning eng yirik xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli chiqishlari borasidagi imkoniyatlarini samarali qo‘llash sanaladi. Ommaviy jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat ijtimoiy siyosatining strategik maqsadlari sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablarining I-XI sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya dasturi. 1993, - 80 b.
2. Fizicheskoye vospitaniye shkolnikov s otkloneniyami v sostoyanii zdorovya. Pod red. L.A. Kruashko. - M., Meditsina, 1960, - 188 s.

SHARQ YAKKAKURASH TURLARI BO‘YICHA TRENERNI KASBIY TAYYORGARLIGI XUSUSIYATLARI

O‘rozbayev.J.T

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masovafiy ta’lim
kafedrası o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Maqolada sharq yakkakurash turlari bo‘yicha o‘quv-trenerlik jarayonini amalga oshiruvchi mutaxassisni kasbiy tayyorgarligi xususiyatlari tahlil qilindi. Trenerga qo‘yiladigan umumiy va maxsus talablar ochib berildi. Mutaxassisni kasbiy tayyorlashning uch pog‘onali modeli jismoniy, psixologik-pedagogik va maxsus nazariy tayyorgarlikni nazarda tutishi ta’kidlab o‘tildi.

Kalit so‘zlar: sharq yakkakurash turlari, o‘quv-trenirovka jarayoni, shaxsiy va kasbiy talablar, tayyorgarlik turlari, uch pog‘onali tayyorgarlik.

ABSTRACT

The article analyzed the features of the professional training of a specialist who implements the educational-coaching process in oriental martial arts. The general and special requirements for the trainer have been disclosed. It was noted that the three-step model of the specialist's professional training includes physical, psychological-pedagogical and special theoretical training.

Key words: eastern martial arts, educational and training process, personal and professional requirements, types of training, three-level training.

O‘zbekistonda axloqan va jismonan sog‘lom, bilimlar bilan boyitilgan jamiyatni qurish ta’lim tizimi oldiga modernizatsiyalash vazifalarini qo‘ymoqda. Mazkur

vazifalarni hal qilish uchun jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarini trenirovka metodikalaridan foydalanish asosida umumta’limiy va kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish zarur.

Zamonaviy jangovar texnikalar elementlarini egallash va ulardan foydalana olish jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlashning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa jismoniy madaniyat fakultetlari, universitet va institutlarining o‘quv jarayoniga jangovar tayyorgarlik bo‘yicha kasbga yo‘naltirilgan dasturiy-pedagogik vositalarni va kurslarni kiritishini, ishlab chiqishni va joriy qilishni talab qiladi. Ular zaruriy bilimlar asoslarini egallashga, kasbiy-pedagogik faoliyatda ulardan froydalanib, shaxsiy tajribani to‘plashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Sharq yakkakurash turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash – jimoniy madaniyat ta’limi tizimida yangi yo‘nalish hisoblanadi. Sharq yakkakurash turlariga zamonaviy jismoniy madaniyat va sport harakati yo‘nalishlaridan biri sifatida munosabatda bo‘lish ularning tarbiyaviy imkoniyatlari doirasini kengaytirishga hamda insonning jismoniy va ma’naviy-axloqiy salohiyatini amalga oshirishga intilishini o‘z ichiga kiritgan shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning samarali tizimi sifatida foydalanishga imkon beradi .

Sharq yakkakurash turlarining xususiyati shundaki, mashg‘ulotlarga har xil yoshdagi kishilarni jalb qilish mumkin. Karate, taekvondo, aykido, dzyudo, ushu kabi turlar bo‘yicha mashg‘ulotlarda 5 yoshdan 60 yoshgacha, va hatto undan ham kattaroq yoshdagi kishilar qatnashayotgani qayd qilingan. Jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtiruvchi, sport, amaliy va boshqa vositalari tomonidan hal qilinadigan vazifalar doirasi kengaygani tufayli, turli darajadagi mutaxassislarni tayyorlash zaruriyati vujudga keldi.

Ular har xil yoshdagi kishilar bilan o‘quv-trenirovka jarayonini amalga oshira olishi kerak, chunki sharq yakkakurashi turlari bilan bog‘chada, sport maktabida, xususiy maktabda, ta’lim muassasalarida shug‘ullanish mumkin .Sharq yakkakurashi turlari bo‘yicha mutaxassis pedagogik va trenerlik faoliyati uchun zarur bo‘lgan sifatlar va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Trenerga qo‘yiladigan umumiy pedagogik

talablar axloqiy o‘zini-o‘zi anglashning yuksak darajasi, pedagogik ta’lim, keng g‘oyaviy va siyosiy dunyoqarash, turg‘un irodaviy sifatlar, pedagogika, psixologiya va biologiyadan bilimlarga ega bo‘lish, yuksak umumiy madaniy daraja, tashkilotchilik qobiliyatlari, jamoani boshqara olish malakasi, o‘quvchilarida obro‘ qozonish kabilardan iborat. Trenerlik faoliyatiga qo‘yiladigan maxsus talabalar: jismoniy tarbiya, tibbiy nazoratning nazariy va metodik asoslarini bilish; texnika-taktika ko‘nikmalarga ega bo‘lish; sport turi bo‘yicha yutuqlarni bilish; mazkur sport turiga qobiliyatli bo‘lgan o‘quvchilarni tanlay olish malakasi; sportchilarni tayyorlashda ularni individual xususiyatlarini hisobga olib, istiqbolli tayyorgarlik rejasini tuza olish; o‘quvchilarda sport bilan doimiy shug‘ullanish istagini tarbiyalash; sportchilarni musobaqalarda yuksak natijalarga erishishga tayyorlash qobiliyatlariga ega bo‘lish. Ta’kidlash lozimki, trener – bu ijodkor shaxsdir. Uning samarali faoliyati uchun diqqat e‘tiborning zo‘rligi, zehnlilik, intuitsiya, xayol, oldindan payqash qobiliyati, shablondan qochish, originallik, tashabbuskorlik, yuksak uyushqoqlik, ish qobiliyati zarurdir .

Bugungi kunda qo‘l jangi texnikalari imkoniyatlari ularni o‘quv jarayonida qo‘llash amaliyotidan ancha oldinga siljib ketgan. Agar alohida fanlarni (iqtisodiy, fizika-matematika, texnika va informatika) o‘rganish bo‘yicha ma’lum tajriba to‘plangan bo‘lsa, gumanitar yo‘nalishlarda ta’lim olayotgan talabalarga jismoniy madaniyat darslarida zamonaviy jangovar san’atlari yutuqlaridan foydalanish ancha kamtarroq ko‘rinadi yoki umuman ishlatilmaydi. Shuning uchun, bugungi kunda sog‘lomlashtiruvchi jismoniy madaniyat mazmuni va vositalarini faol o‘zgartirish, jismoniy madaniyat darslarini o‘tish metodikasini va unga qo‘yiladigan talablarni qayta ko‘rib chiqish, jismoniy madaniyat fakultetlari talabalarini kasbiy pedagogik tayyorlashning metodik tizimini sog‘lomlashtiruvchi va zamonaviy jangovar texnologiyalar integratsiyasi asosida rivojlantirish o‘z yechimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi. M.I.Stankin tomonidan ishlab chiqilgan sharq yakkakurashi turlari bo‘yicha mutaxassisi kasbiy tayyorlanganligining uch pog‘onali modeli mazkur muammoni ma’lum darajada hal qilishga imkon beradi . Birinchi

pog‘ona faoliyatning poydevori, uning asosi, bazasi hisoblanadi. Tanlangan yakkakurash turining texnikasini egallash uchun, avvalambor, yetarlicha jismoniy tayyorlanganlikka (konditsiyaga) ega bo‘lish zarur. Texnikaning yetarli hajmini egallamagan bo‘la turib, o‘quvchilarni o‘rgatib bo‘lmaydi. Texnik harakatlar hajmini sport malakasi (kvaliyaikatsiyasi) aks ettiradi. O‘z sport malakasini oshirib, mutaxassis harakatlanish tayyorlanganligini ham miqdor jihatidan, ham sifat jihatidan yaxshilaydi.

Shuning uchun harakatlanish tayyorlanganligi sharq yakkakurashi turlari bo‘yicha mutaxassisi mo delining negizini tashkil qiladi. Ikkinchi pog‘ona – bu psixologik-pedagogik tayyorgarlikdir. Pedagog kasbi pedagogik qobiliyatlar va muhim kasbiy fazilatlar mavjudligini taqozo qiladiki, bular ta’lim oluvchilarga harakatlanish tajribasini (tanlangan yakkakurash turining texnikasiga o‘rgatish uchun va jismoniy holat darajasini oshirish uchun) o‘tkazish uchun zarur bo‘ladi. Uchinchi pog‘ona maxsus nazariy tayyorgarlikni aks ettiradi. Mutaxassis bo‘lish uchun texnikani egallash, o‘qitish qobiliyatiga ega bo‘lish bilan birga, ulardan qayerda va qanday foydalanish kerakligini ham bilish kerak. Maxsus bilimlarga ega bo‘lgan trener trenirovka jarayonini boshqara oladi, uni maqsadlar va vazifalarga mos holda tuza oladi, hamda tarbiyalanuvchilar natijalariga har xil omillarning ta’sirini tadqiq qilib, yuzaga kelgan muammolarni hal qilish yo‘llarini topa oladi. Zamonaviy jismoniy madaniyat ta’limi tizimiga bunday yondashuv natijasida bilimlarning zaruriy darajasini, hamda, shunga mos holda, bo‘lajak o‘qituvchining malakasi darajasini aniqlash mumkin bo‘ladiki, o‘qituvchi o‘z oldida turgan vazifalarning belgi-

langan doirasini amaliy faoliyati davomida amalga oshiradi. Sharq yakkakurashi turlari bo‘yicha mutaxassisni tayyorlash bo‘lajak abiturentning ixtisoslikni aniqlashi paytidan boshlab to oliy o‘quv yurtiga kirishi va oliy ta’limdan keyingi bosqichni o‘tishigacha butun jarayonni qamrab oladigan tizimni ifodalashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Parxomovich G.L. Osnovy klassicheskogo dzyudo. - Perm, 1993.
2. Litmanovich A.V. Nepreryvnaya podgotovka spetsialistov po vostochnym vidam yedino borstv // Teoriya i praktika fizicheskoy kultury. - 2000. - № 6.
3. Podolyako M.V., Podolyako V.P. Lichnostno-professionalnye trebovaniya k treneru po vostochnym yedinoborstvam // Lichnostnoye i professionalnoye razvitiye budushchego spetsialista. - Tambov, 2014.
4. Stankin M.I. Uchitel fizicheskoy kultury: lichnost, obsheniye. - M., 1993. __

SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA AMIRLIKDAGI HUNARMANGLAR JAMIYATI HAQIDA

Abdullayeva Nargiza Abduxalimovna

BDU 2-kurs magistranti

Buxoro amirligida hamma kasiblilar va hunarmandlarning jamiyatlari bo'lgan. Har bir hunarmand o'z kasbiga aloqador jamiyatning a'zosi sanalardi. Ammo jamiyatga kirishi uchun ariza berish, a'zolik haqi to'lash kabi shartlar yo'q edi. Agar hunarmand to'quvchi bo'lsa, to'quvchilar jamiyatiga, kovushdo'z bo'lsa, poyafzaldo'zlar jamiyatining a'zosi hisoblangan.

Har bir hunar ahli ruhoniylarning talqini bilan biror tarixiy yoki diniy afsonaviy shaxsni o'zlariga «pir» (rahbar) deb hisoblardilar. Chunonchi, to'quvchilarning piri — Imom A'zam, poyafzaldo'zlar piri — Boboyi Porado'z Buxoriy bo'lib, o'z vaqtida yamoqchilik qilgan ekan, meshkoblarning piri — Abbos (payg'ambarning amakisi) bo'lib, Karbalo voqeasida Imom Husayn guruhiga Furot daryosidan meshda suv tashigan ekan, temirchilar piri — Dovud payg'ambar bo'lib, u o'z zamonida zirhsozlik qilgan emish, otboqarlar piri — Qambar Hazrat Alining otboqari ekan.

Ruhoniylar har hunarning hunarmandlari uchun qonun-qoidalar yozib, uni «risola» deb ataganlar. Risolada har xil duolar yozilgan bo'lib, hunarmand ish boshlash oldida, ish davomida va ish tamom bo'lgach, shu duolarni o'qishi lozim. Bundan tashqari, hunarmandning oqsoqol, ustoz va sohibkorlarga (korxonalar egalariga) munosabati ham shu risolada tayinlab qo'yilgan.

Albatta bu munosabatlar oqsoqol, ustoz va ustaxona egalarining manfaatiga qaratilgan bo'lib, hunarmandning zarariga xizmat qilardi. Hunarmandlar qaysi biri risolada yozilgan qoidani buzsa, oqsoqolga «tartibsizlik» jarimasi to'lashga majbur edi.

Oqsoqol «tartibsizlik» jarimasiga tushgan pulning bir qismini xarjlab har yil (yig'ilgan pulning miqdoriga qarab), bir necha marta «Arvohi pir» nomi bilan ziyofat

berardi. U ziyofat diniy shaklga kirib, xatmi qur’onga aylanardi. Bu ziyofatga taklif etilganlar ham avval ruhoniylar, ikkinchi ustakorlar (ustaxona egalari) katta ustalar va vofurushlar (o’sha kasbning mahsulotini olib sotuvchi savdogarlar va jalloblar) bo’lib, oddiy hunarmandlarning vazifasi bu ziyofatda xizmat qilish edi. Agar kattalarning oldidan biror narsa ortib qolsa, ular o’zlariga yarasha yeyishar, yo’qsa lablarini yalab ketardilar.

Har bir hunarning shogirdi, qanchalik hunarmand bo’lmasin, to ziyofat berib, belini bog’lamaguncha shogirdlik darajasidan ustalik martabasiga o’tolmas edi. «Bel bog’latish» ziyofatida odatda shu shogirdning bevosita ustasi, shu kasbning kattalari — oqsoqol va katta ustalar hozir bo’lar va albatta uch ruhoniyy ham bel bog’latish ziyofatining to’rini ishg’ol qilardilar.

Shogird ziyofat oxirida o’z ustoziga katta hadyalar berar, ruhoniylar, oqsoqol, agar shogird ustaxona shogirdi bo’lsa, ustakorni ham tuhfadon quruq qoldirmas edi.

Ustakor tuhfa olgandan so’ng bir belbog’ni shogirdning beliga bog’lar va qo’liga shu hunarning asboblaridan birini (agar duradgor bo’lsa tesha yo arra, shuvoqchi bo’lsa andava, sartarosh bo’lsa ustara yo qaychi va shunga o’xshash) berardi va unga risolaga muvofiq mustaqil ish qilishga ruxsat va fotiha berardi. Ruhoniylar qur’on o’qib shu hunarning piri arvofiga bag’ishlardilar, shu bilan «belbog’ bog’latish» ziyofati tamom bo’lardilar.

Hunarmandlarning har bir jamiyatida bir oqsoqol bo’lib, jamiyatning ishlarini bevosita shu odam idora qilardi, shunga o’xshash yana bir «poykor» yugurdak ham bo’lardilar. Uning vazifasi kerak bo’lgan chog’da shu jamiyat a’zolarini bir joyga yig’ish, oqsoqolning farmoyishi bilan jamiyatning boshqa mayda-chuyda ishlarini qilishdan iborat edi.

Odatda har bir jamiyatga oqsoqol saylanardi. Lekin saylovda faqat katta ustalar, ustakorlar va vofurushlargina ishtirok etardilar. To’g’rirog’i, bu «saylovchilar» o’zaro maslahat qilib, kelishib, bir kishini oqsoqol qilib tayinlardilar, poykorni esa, oqsoqolning o’zi tayinlardilar. Oddiy hunarmandlar esa, saylov majlisida bo’lsin, bo’lmasin ularning vazifasi kim saylanganini eshitishdan iborat, xolos.

Hunarmandlar jamiyatining kattarog'i poyafzaldo'zlar, meshkoblar, otboqarlar va to'quvchilar jamiyati edi. Katta jamiyatlardan otboqarlar va meshkoblar jamiyatining risolalari garchi diniy ruhda bo'lsa ham, hunarmandlarning manfaatlarini bir daraja himoya qilardilar. Bularning saylovlari omma ishtirokida bo'lardi.

Chunonchi, har hovuz meshkobchilarining oqsoqolini shu hovuzdan suv tashiydigan meshkobchilar ommasi ochiq tarzda saylardilar. Kichik hovuzlarning meshkobchilari oz sonli bo'lganlari sababli, oqsoqol saylovida o'zlariga yaqinroq katta hovuz meshkobchilariga qo'shilib saylov o'tkazardilar.

Meshkoblar oqsoqolining vazifasi suv iste'molchilari oldida meshkobchilar huquqini himoya qilishdan iborat bo'lardi. Masalan, bir meshkobchi bir hovli egasi bilan kuniga bir yo ikki mesh suv keltirib berishga kelishadi. Agar meshkobchi bilan hovli egasi orasida janjal chiqsa, ya'ni hovli egasi meshkobchi- ning haqini to'lab bermasa, meshkobchi u hovliga suv tashishni to'xtatib, bu haqda oqsoqolga xabar qilardi. Bunday mavrida hovli egasi qancha ortiq pul bersa ham, boshqa biror meshkobchi unga suv tashib bermasdi. Agar biror meshkobchi pulga aldanib, unga suv tashib bergunday bo'lsa, oqsoqol undan qoidani buzgani uchun shtraf olib, qayta u joyga suv tashishni man etardi. Agar u meshkobchi ikkinchi marta qoidani buzib u hovliga suv keltirsa, oqsoqol uni suv tashish huquqidan mahrum etib, meshkobchilar qatoridan chiqarib yuborardi. Xullas, to hovli egasi o'zining avvalgi meshkobchisini rozi qilmaguncha boshqa meshkobchi unga suv tashib bermasdi. Hovli egasi avvalgi meshkobchisini rozi qilgandan so'ng, u hovliga suv tashish huquqi birinchi navbatda o'sha avvali meshkobchining o'ziniki bo'lardi. Bordi-yu, u o'z ixtiyori bilan bu joyga suv tashishni istamasa, u holda boshqa meshkobchi bu hovliga suv tashishga haqli bo'lardi. Meshkobchilarning xuquqlarini bu xilda himoya qilish ularning risolalarida yo'q edi. Lekin hayot ularni o'z huquqlarini himoya qilish uchun risolada yozilmagan shu qoidani o'z oralarida joriy etishga majbur qilgan edi.

Oqsoqolning yana bir vazifasi suv tashish tartibini nazorat qilish edi. Meshkobchi meshni yerga qo'ymasligi lozim edi, suv olayotgan vaqtda meshning bir tomoni hovuz zinasiga tegib turadi, shuning uchun mesh- kobchi zinaning shu joyini yuvishi, so'ngra

meshning bir uchini shu toza joyga qo'yib turib suv olishi lozim. Shuningdek, meshga suv quyadigan charm do'lchani yerga qo'yish man etilgandi. Meshkobchi o'z meshini suv bilan to'ldirgach, do'lchani mixga yoki daraxtga ilib qo'ymog'i lozim edi. Agar meshkobchi shu qoidalarning birortasini buzsa, oqsoqol undan qoidani buzgani uchun ikki tanga jarima olardi va shu yo'l bilan to'plangan pullarni «Arvohi pir» ziyoratiga sarf qilardi. Meshkobchilarning ham «Arvohi pir» ziyofati diniy ruhda o'tardi.

Shuvoqchilar va duradgorlar jamiyati ham o'z a'zolarining huquqini bir daraja himoya qilardi. Agar bir usta bilan sohibkorning orasi buzilib, usta binokorlikni chala tashlab ketsa, boshqa ustaning bu imoratni tamomlashga haqi yo'q edi. Sohibkor avvalgi ustani rozi qilgandan so'ng, agar u usta qaytib bu joyda ishlashni xohlamasa, boshqa ustaning u joyda ishlashi mumkin edi. Bu jamiyatning ham «Arvohi piri» diniy ruhda o'tardi.

Hunarmandlar jamiyatining eng erkini otboqarlar jamiyati bo'lib, bunga aravakashlar ham a'zo edilar. Otboqarlar jamiyatining oqsoqoli qilib biror joyda shu kasbda ishlab turgan qariyalardan biri saylanardi. Shuningdek, oqsoqol sayloviga otboqarlar faolroq ishtirok etardilar. Otboqarlarning ham diniy ruhda yozilgan risolalari bor edi, lekin ular risolada aytilgan qoidalarga hech hachon amal qilmas edilar va «Arvohi pir» ziyofatini bermasdilar. Bu kasbning shogirdlarini «Navcha», (yangicha) deb atalardi. Bular otboqarlik kasbini egallab olgach, «belbog' bog'lash» marosimi o'tkazmay, mustaqil ishlab ketaverardilar.

Bu jamiyatda to'planadigan pullar qoidani buzgani uchun a'zoldan olinadigan jarima tariqasida emas, balki a'zolarni ishga kiritish yo'li bilan yig'ilardi. Qaysi otxonaga otboqar kerak bo'lsa, oqsoqolga murojaat qilardi. Oqsoqol bir yo bir necha otboqarni talab qilgan kishiga topshirib, ularning oyligi va kundalik oziq-ovqatlarini tayin qilib berardi.

Har bir otboqarni ishga joylaganda oqsoqol xo'jayindan ikki tanga, otboqardan ikki tanga olardi. Lekin u bu pulni o'zi uchun yo boshqa narsaga sarf qilmay, biror otboqar bekor qolsa, yoki xo'jayin bilan kelishmay, ishni tashlab ketsa, oqsoqolga murojaat qilardi, oqsoqol ham uni to yangi ishga joylaguncha boqar va to'plangan mablag' mana shularga sarf bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ражабов Қ. Файзулла Хўжаев (тарихий эссе). Т.: Abu matbuot- konsalt, 2011
2. Наимов Н. Амирнинг хазинаси. –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2005. – Б. 53.
3. То‘раев Н. Вухоро тарихи / О‘қув қо‘лланма. – Вухоро, 2020. - В. 165.
4. Айний С. Эсдаликлар. I- IV қисмлар. / Асарлар. 8 жилдик. 5 – 7 жилдлар. Т: Ўздавнашр, 1965-1967.

UDK-372.893

ANOR YETISHTIRISHNING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI

Usmonqul Islomov

Jizzax politexnika instituti o‘qituvchisi dots

Iroda Rahmonova

Jizzax politexnika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mualliflar tomonidan anor mevasining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va tutgan o‘rni haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Qishloq xo‘jalik sohasini, shu jumladan, bog‘dorchilik va anorchilikni chuqur o‘rganib chiqib, qanday muammolar sodir bo‘lganligini aniqlab olish va ularning ijobiy yechimini topishni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: bog‘dorchilikning ahamiyati, anorchilik, anorni tarqalishi, anorning inson organizmi uchun ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini belgilovchi va katta daromad keltiradigan asosiy sohalardan biri bog‘dorchilik hisoblanadi. Bu sohani ilmiy asosda rivojlantirmasdan turib, aholi va sanoatimizning meva mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish mumkin emas. Shunday ekan, qishloq xo‘jalik sohasini, shu jumladan, bog‘dorchilikni chuqur o‘rganib chiqib, qanday muammolar sodir bo‘lganligini aniqlab olish va ularning ijobiy yechimini topishni taqozo etadi [1].

Respublikamiz aholisi moddiy farovonligi o‘sishi bilan ularning meva mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari ham oshib bormoqda, chunki mevalar (ho‘l va quritilgan holatlarda) inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan to‘yimli, mazali va

shifobaxsh oziqdir. Shu bois yil davomida aholining mevaga bo‘lgan talabini ta’minlash bu – davr talabidir. Bog‘dorchilik qishloq xo‘jaligi tarmog‘i bo‘lib, fan sifatida meva daraxtlarining morfologik tuzilishi, o‘sishi, rivojlanishi, ko‘paytirish usullari, hosil berish qonuniyatlari hamda parvarishlash texnologiyasini o‘rgatadi. Yuqorida ko‘rsatilgan bilimlarning egallanishi agronom, fermer mutaxassisi bo‘lib shakllanishlarida katta ahamiyat kasb etadi va agrotexnik chora-tadbirlarni yuqori darajada va o‘z vaqtida o‘tkazishga yordam beradi [2].

Bog‘dorchilik sohasi- biologiya, biotexnologiya, tuproqshunoslik, o‘simliklar fiziologiyasi, melioratsiya, agrokimyo va umumiy dehqonchilik tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Meva daraxtlaritsh parvarishlash texnologiyasi shu fanlar bilan aloqadordir. Bog‘dorchilik qishloq xo‘jaligining serdaromad tarmog‘i hisob lanib, odam organizmi uchun meva va rezavor mevalar tarkibida bo‘lgan shakarlar, organik kislotalar, oksidlar, moylar, vitaminlar, mineral tuzlar, pektin, fermentlar, kolloidlar va boshqa moddalar mavjud. Meva va rezavor meva oziq-ovqat hamda sanoat uchun xom ashyo hisoblanadi.

O‘zbekistonda bog‘dorchilik qadimdan asosiy tarmoqlardan biri hisoblangan. V asrdan boshlab mevali daraxtlar haqidagi ilk ma’lumotlar to‘planganligi ma’lum bolgan. Bu davrda mevali daraxtlar asosan yovvoyi holda o‘sgan. Eramizning X asri boshidan mevalarni madaniy holda parvarish qilinishi boshlangan.[3-4]

O‘zbekistonda bog‘dorchilikni tashkil etish va rivojlantirishda Rossiva bog‘dorchilik jamiyatining 1885-yilda Toshkentda ochilgan filiali katta o‘ringa ega bo‘lib, u 1895-yilda Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyatiga aylantirildi.

Anor subtropik ekinlar turkumiga mansub bo‘lib, tabiatda O‘rta yer dengizi bo‘yi mamlakatlarida, Qora dengiz atrofi yerlarida, Kavkaz ortida, Primore o‘lkasida, Xindistonda, Xitoy va O‘rta Osiyoda tarqalgan. Yer yuzining anor qishda ko‘milmay parvarish qilinadigan xududlarida balandligi 5-7 m gacha o‘sovchi daraxt-buta qishda ko‘miladigan hududlarda buta holda o‘sadi. Anor yovvoyi xolda tabiatda bir ildizdan unib chiqqan bir necha shoxlardan iborat bo‘lgan buta shaklida uchraydi. Bir asrdan

ziyod vaqt davomida O‘zbekiston iqlim sharoitiga mahalliyashtirilgan issiq sevar, sug‘orish suvi va tuproq unumdorligiga talabchan, sho‘rga chidamli ekin.

Anor XIX – asrning oxirlaridan Farg‘ona viloyatining Quva tumani hududida ekilib kelinmoqda. Bugungi kunda Respublikamizning Surxondaryo, Qashqadaryo Jizzax, va Sirdaryo viloyatlarida anorchilik jadal rivojlanib bormoqda. Sirdaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitida, xususan dehqonchilikda foydalanib kelinayotgan yerlar tuprog‘ining turli darajada sho‘rlanganligi tufayli mahsulot yetishtirishda yuqori samaradorlikka erishish uchun ekilayotgan ekin turi hamda navlarini to‘g‘ri tanlab joylashtirish fermer xo‘jaliklari va tomorqa egalaridan alohida e‘tibor qaratishni taqozo etadi. Viloyatda anorchilikning tarixi XX asrning 30 - yillarida Farg‘ona viloyatining Quva tumanidan olib kelinib ekib parvarishlanishidan boshlangan.

Jizzax viloyatida anorchilikni yorqin istiqboliga ishonib uni rivojlantirish yuzasidan Respublikamiz hukumati tomonidan ham alohida e‘tibor qaratilib maydonda anorzorlar yaratish va “Anorchilik” agrofirmasini tuzish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi. Viloyatning Mirzacho‘l, Forish, Yangiobod tumanlari ayrim hududlarida anorchilik aholi tomorqalarida ekilib sifatli hosil va kattagina daromad olish manbaiga aylanib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1-Қишлоқ хўжалигида ислохотларни чуқурлаштиришга доир ва меъёрий хужжатлар тўплами. 1 – 2 қисм. Тошкент, 2008. 98-100 б.
- 2-Бўриев Х. Ч, Байметов К.И. Жўраев Р.Ж. Мева экинлари селекцияси ва навшунослиги. Тошкент: Меҳнат, 2010. 55-76 б.
- 3-Шаумаров Х.Б., Исламов С.Й. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва бирламчи қайта ишлаш технологияси. Амалий ва лаборатория машғулотлари ўтказиш бўйича ўқув қўлланма. Тошкент, 2011. 34-36 б.
- 4-Р.Юнусов, К.Умаров, Б.Каримов Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта-махсус таълим вазирлиги “Боғдорчилик” Қишлоқ хўжалик касб-хунар коллежлари талабалари учун ўқув қўл./- Т.: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2016- 168 б.

ORTOSIFON (ORTHOSIPHON STAMINEUS BENTH) O‘SIMLIGINING BOTANIK TUZILISHI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Fayziyeva Marjona Amrulloevna,

Mamatkulova Iroda Ergashovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Unversiteti Jizzax filiali

ANNOTATSIYA

Ortosifon (*OrthosiphonstamineusBenth*) shifobaxsh va dorivor o'simlik ekanligini barchaga yetkazishimiz va bu xususiyatlaridan to'g'ri foydalangan holda tibbiyotda va boshqa sohalarda kerakli mahsulotlar olishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: beta-sitosterol; rozmarin kislotasi; saponinlar; efir moylari; ortosifonin glikozidlari; taninlar; organik kislotalar; mezoinosit; kaliy tuzlari; temir, mis, kobalt, magniy, sink, marganets; fenol-karbol kislotalari; flavonoidlar; vitaminlar

Ortosifon (buyrak choy) - *Orthosiphon stamineus Benth.* Yasnotkadoshlar - Lamiaceae (Labguldoshlar - Labiatae) oilasiga kiradi.[2]

Botanik tasnifi: Ko'p yillik, bo'yi 1-1,5 m ga yetadigan doim yashil yarim buta yoki buta. Poyasi bir nechta, to'rt qirrali, asos qismi yog'ochlashgan bo'lib, pastki qismi to'q binafsha, yuqori qismi yashil - binafsha yoki yashil, bo'g'imlari esa binafsha rangga bo'yalgan. Bargi oddiy, bandi bilan poyada butasimon shaklda qarama - qarshi o'rnashgan. Gullari halqaga o'xshash to'planib, shingilsimon to'pgulni tashkil etadi. Guli qiyshiq, och binafsha rangli. Gulkosachasi qo'ngiroqsimon, ikki labli, gultojisi ham ikki labli, otaligi 4ta, onalik tuguni to'rt bo'lakli, yuqoriga joylashgan. Mevasi - 1-4 ta yong'oqchadan iborat. Iyul-avgust oylarida gullaydi.[1,3,4]

Geografik tarqalishi. Vatani Janubi-Sharqiy Osiyoning tropik rayonlari. U yovvoyi holda Indoneziyada (Yava, Sumatra va Borneo orollarida), Birmada, Filippinda va Shimoliy-Sharqiy Avstraliyada o'sadi. Bir yillik o'simlik sifatida

Gruziyaning subtropik tumanlarida o'stiriladi. O'simlik qishda oranjereyada saqlanadi. Erta bahorda undan 2ta bargli novdachalar qirqib olinadi va oranjereyada ko'chat qilib o'tqaziladi. May oyida esa bu ko'chatlar ochiq yerga o'tqaziladi.[1,3,4]

Kimyoviy tarkibi. Maxsulot tarkibida triterpen saponinlar, minozit, achchiq ortosifonin glikozidi, 1,5% gacha vino, limon va boshqa kislotalar, 0,2 - 0,66% efir moyi, 5- 6% oshlovchi va boshqa moddalar hamda ko'p miqdorda kaliy tuzlari bo'ladi. Saponinlardan birining anglikoni - sapofanin a- amirin ekanligi aniqlandi.[1,2,3,4] Tibbiyotda foydalanish uchun o'simlik maxsus sharoitlarda, plantatsiyalarda o'stiriladi, bu ozuqa moddalarining maksimal miqdoriga erishishga imkon beradi. O'simlik quyidagi tarkibiy qismlarga boy: beta-sitosterol; rozmarin kislotalari; saponinlar; efir moylari; ortosifonin glikozidlari; taninlar; organik kislotalar; mezoinosit; kaliy tuzlari; temir, mis, kobalt, magniy, sink, marganets; fenol-karbol kislotalari; flavonoidlar; vitaminlar.[5]

Ishlatilishi. Ortosifon (Orthosiphon stamineus Benth) o'simligining preparati siydik haydovchi vosita sifatida buyrak (buyrak tosh kasalligi) hamda xolesistik va yurak glikozidlari bilan birgalikda yurak qon tomiri sistemasining II-III darajali kasalliklarida ishlatiladi.[1,2] O'simlik tarkibidagi organik kislotalar tufayli fito-xom ashyolar yallig'lanishga qarshi faollikni ta'minlaydi, chiqindilar va oraliq metabolitlarni, siydikda eriydigan zaharli birikmalarni olib tashlashga yordam beradi. Kaliy tuzlari tufayli yurak va buyraklar ishi qo'llab-quvvatlanadi, suv-tuz almashinuvi tartibga solinadi. Rosmarin kislotalari mavjudligi antioksidant va mikroblarga qarshi faollikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, u me'da shirasining sekretsiyasini oshiradi, shuning uchun ovqat hazm qilish muammolari uchun ham ishlatilishi mumkin.[3,4,5]

Yetishtirish texnologiyasi. Ortosifon (Orthosiphon stamineus Benth) bir yillik ko'chat ekini sifatida Gruziya subtropiklarda yetishtiriladi. O'zbekistonning ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarida sinovdan o'tkazilgan. Aniqlanishicha, buyrak choyi ochiq va oftobli yerlarda yaxshi o'sadi. Unumdor va namlik yetarli tuproqlarda yaxshi rivojlanadi. o'simlik poya qalamchalardan ko'paytiriladi. Ko'chat har yili, dekabr

oyining ikkinchi yarmidan boshlab issiqxonalarda havo harorati 18-22°S da tayyorlanadi. Qalamchalar 5-7 sm uzunlikda tayyorlanadi. Novdalaridagi barglar olib tashlanadi, faqat uchidagi barglarga qoldiriladi. Bug‘lanishini kamaytirish uchun yirik barglar ko‘ndalangiga 2 ga bo‘linadi va mayda barglarga tegilmaydi. Shu tarzda tayyorlangan qalamchalar 60 x 45 sm o‘lchamli va balandligi 25 sm bo‘lgan ko‘chat qutilarga o‘tkaziladi. Drenaj uchun qutilarning tagiga 2-3 sm qalinlikda keramzit yoki mayda shag‘al, keyin yirik donador qum solinadi. Drenaj ustiga 10-15 sm qalinlikda 1:1:1 nisbatda organik massa aralashtirilgan tuproq, chirigan go‘ng va qum solinadi. Uning ustiga unumdor tuproq va 5-6 sm qalinlikda yirik qum bilan yopiladi. Qalamchalarni qiyalatib ustki qum qatlamiga 3-5 sm chuqurlikda, 5 x 5 oraliqda ekiladi va leykada to‘yintirilib sug‘oriladi. Undan keyin qutining usti shisha va shaffof plyonka bilan yopib qo‘yiladi. 1 kvadrat metr yerga 4 ta qalam cha ekiladi. 1 gektar yerga etarli ko‘chat tayyorlash uchun 300 kvadrat metr yopiq grunt talab etiladi. Qalamchalarni ekishda javonlardan, issiqxona tubidagi yerlardan foydalanish mumkin, lekin bunda ham yuqorida bayon etilayotgan drenaj oziqaviy muhit bo‘lishi kerak. Qalamcha parvarishi, har kungi sug‘orish vaqti-vaqti bilan tuproq ustidagi zararkunandalarni yo‘qotish uchun qum yuzasini yumshatilib turiladi. Qalamchalarning 85-90% tutadi.[4]

Xulosa qilib aytganda, Ortosifon (buyrak choy) o‘simligi har tomonlama foydali. Uning foydali va shifobaxsh xususiyatlari juda ko‘p. Ekalogik muhitni hisobga olgan holatda toza va tabiiy dori preparatlaridan foydalanish kerak. Yurtimizda shu jumladan Jizzax viloyatida Ortosifon (buyrak choy) o‘simligini turlarini ko‘paytirib, undan o‘zimiz uchun foydali bo‘lgan damlamalar va boshqa mahsulotlarni tayyorlash va qayta ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Xolmatov H.X., Ahmedov O. Farmakognoziya. - 1,2 qism. - Toshkent:Fan, 2007.(398,399-betlar)
2. Xolmatov X.X. va boshqalar Ruscha-lotinja-o‘zbekcha dorivor o'simliklar lug‘ati, Toshkent, 1992.(93-bet)
3. H.T.Avezov, Z.A.Sulaymonova Biofaol moddalar kimyosi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari. Buxoro-2021. (15-bet)
4. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi [Matn]:darslik/O'.Axmedov [va boshq.]. - Toshkent : Shafolat Nur Fayz, 2020. - (129,132-betlar)
- 4.O‘zbekiston florasidagi madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining ozuqabop turlari. QDU Axborotnomasi. - Qarshi, 2021.-№.3 (49). - S.45-53. O.S.Abduraimov., A. Narxadjaeva., A.V. Maxmudov., I.E.Mamatkulova
- 5.Abduraimov O.S., Mamatkulova I.E.O‘zbekiston florasidagi ayrim dorivor va ziravor turlarning ahamiyati. «Fan, ta’lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari» Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari to‘plami. 2022 yil 12 aprel, Andijon.B. 335-338.
- 5.<https://uz.healthy-food-near-me.com/orthosiphon-stamens-kidney-tea/>

ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ВЛАСТИ И МУСУЛЬМАНСКОГО ДУХОВЕНСТВА КАРАКАЛПАКСТАНА В 1917-1918- ГОДЫ

Зинатдинов Нуратдин Кобейсинович

Учитель школы № 40 г. Нукус, Республика Каракалпакстан

nuratdinzinatdinov095@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется состояние взаимоотношений советской власти и духовенства Каракалпакстана в 1917-1918 годы.

Ключевые слова: религия, большевистская власть, Туркестан, Каракалпакстан, декреты, военные действия, противоречие лозунгов и действий новой власти.

RELATIONS OF THE AUTHORITY AND THE MUSLIM CLERGY OF KARAKALPAKSTAN IN 1917-1918

Zinatdinov Nuratdin Kobeyzinovich

Teacher at School No. 40, Nukus, Republic of Karakalpakstan

nuratdinzinatdinov095@gmail.com

ABSTRACT

The article analyzes the state of relations between the Soviet government and the clergy of Karakalpakstan in 1917-1918.

Key words: religion, bolshevik power, Turkestan, Karakalpakstan, decrees, military actions, contradiction of slogans and actions of the new government.

В 1916-1917 гг. консолидирующую роль в национально-освободительном движении играло мусульманское духовенство. Весной 1917 г. был сделан важный шаг по консолидации туркестанских народов: созван первый в истории съезд мусульман обще регионального масштаба, на котором было заявлено о твердом стремлении народов к автономии, защите своих обычаев, уклада жизни, организационно оформлен центральный орган выражения этих интересов - Краевой совет мусульманских депутатов[1,12].

Однако, новая власть большевиков 13 октября 1918 г. ликвидировала организацию “Улема”, “Союз мусульман” Петро-Александровска.

В Хивинском ханстве на 800 000 человек населения имелось более 100 медресе и 2 тыс. мектебов. В Амударьинском отделе Туркестанского края на 198 565 человек населения имелись 58 медресе и 434 мектебов. В Петро-Александровске действовало трехклассное училище, в Чимбае и Шурахане “русско-туземные” школы, вечерние курсы по изучению русского языка. Уровень грамотности населения до 1917 года в обеих частях Каракалпакстана был равен 10-15 %.[2].

Большевики хотели выбить эту основу и заменить идеологические суррогаты, к тому же национально чуждые и привнесенные извне. Не были учтены, что население Каракалпакстана находило в религии ислама единственное утешение и лишь благодаря религиозным проповедям оно приспособилось переносить тяготы жизни в условиях первой мировой войны.

Тем не менее, “красногвардейской атаки” сразу начать не удалось. Об этом свидетельствуют судьбы декретов “О земле”, “О национализации”, “Об отделении церкви” в Каракалпакстане, где теснее и ярче соприкасались интересы государства и религиозных учреждений.

У народов Каракалпакстана существовали нижеследующие основные формы собственности на землю: падшалык, мулык, вакф и общинное землевладение. Нас интересует вакфные земли, образовавшиеся из земель,

пожертвованных правителями в пользу мусульманского духовенства или на содержание мектебов, медресе и мечетей.

В Амударьинском отделе 38 мечетей овладели вакфными землями. В Шураханском участке имелись 14 471 танаба вакфных земель, в Чимбайском участке 19 000 танабов. Размер вакфных земель в Хивинском ханстве был равен 470 000 танабов. Примерно 25 % всех удобных земель Хивы принадлежало духовенству[3].

Большевики в Амударьинском отделе и Хорезме проводили политику, направленную на ограничение экономических основ духовенства, ликвидацию вакфного имущества религиозных учреждений, преимущественно состоявших из вакфных земель и торгово-промышленных предприятий.

Я. М. Досумов считает, что “допущение преподавания закона божьего в русских школах Туркестана во внеурочное время, вопреки декретам Советского правительства, объяснялось влиянием буржуазно-оппортунистических элементов и политической близорукостью Народного комиссариата просвещения Туркеспублики. Вместе с тем проводить декрет тогда еще не представлялось возможным в связи с общей отсталостью народов Средней Азии”[4, 34].

Совдеп Амударьинского отдела только 23 мая 1918 г. объявил в своем приказе содержание декрета. Этот приказ встретил упорное сопротивление членов Петро-Александровской городской думы и родительского комитета (Мануилов, Равилов, Корнилович, Памшев и др.).

Таким образом, в области взаимоотношений власти и религии одним из первых декретов большевики отделил школу от церкви (в наших условиях от мектебов и медресе). Осуществление этого на практике проходило сложно, получало на местах различные толкования.

Опираясь на достижения новейшей историографии, мы можем утвердить следующее: ни политическая близорукость столоначальников просвещения, ни уровень грамотности никак не могли откладывать осуществление декрета в

жизнь. Сама реальная жизнь приостановила этот процесс. Страна оказалась в социальном хаосе. Советская власть не могла установить властные структуры в Амударьинском отделе вплоть до середины 1918 г. В Амударьинском отделе существовало четверовластие[5].

Поэтому своеобразно шел процесс отделения школы от церкви в Средней Азии. Наркомпросвещения Туркестанской АССР 20 ноября 1918 г. признал необходимым временно отказаться от проведения в жизнь Декрета об отделении церкви от государства и школы от церкви. Более того, было принято постановление о разрешении преподавания вероучения в национальных школах.

Новая, советская школа, создавалась медленно. Тому множество причин, и не только финансовые трудности и слабая материально-учебная база. Культурные, бытовые, этнические и иные особенности края то и дело вступали в противодействие с установками, инструкциями Советской власти. Как, скажем, нужно было осуществлять “Положение о единой трудовой школе”, предписывающее совместное обучение мальчиков и девочек в местах, где весь уклад жизни был пронизан мусульманскими правилами?

Тем не менее, многие учителя бывших русско-туземных, ново-методных школ и Петро-Александровского городского училища стали работать в новых школах: Х. Мазитов, Е. Кожуров, Ю. Ахмедов, К. Салимов и другие.

ЦИК Туркестанской АССР 9 августа 1918 г. принял декрет о государственных языках. Власти приглашали на советскую и партийную работу в качестве секретарей и ответственных переводчиков религиозных лиц, отлично знающих письменно и устно языки местных национальностей.

Например, “красными переводчиками” работали Толебай Жаулыбаев (он в 1916-1920 гг. был избран председателем волостного исполкома Нукусской волости), Асан Айтымов (работал в исполкоме Чимбайского уезда), Мухамеджан Бальжанов (был одним из первых руководителей советских учреждений в Чимбае).

Передовая интеллигенция, перешедшая на советскую платформу, также не порвала с религией отцов и дедов. Например, Касым Аvezов (1897-1937) имел солидное духовное образование. Коптлеу Нурмухамедов (1903-1938) считался одним из грамотных людей своего аула как по мусульманской грамоте, так и по кириллице. Бывший местный судья Петро-Александровска Ибрагим Казиев стал работать народным судьей.

Сложным было взаимоотношение деятелей национальной культуры (они были верующими) с представителями советской власти. Кыссахан Аббаз Дабылов в первые годы советской власти не мог воспринять преобразования в области раскрепощения женщин. Каракалпакский народный шаир Аяпберген Мусаев занимался одновременно тремя формами творческой деятельности. Он был известен катибом-каллиграфом, который собирал среди людей образцы каракалпакской устной и письменной литературы, переписывал их от руки. Наряду с этим он являлся тем знаменитым кыссаханом-чтецом народных книг, который читал нараспев произведения фольклора и письменной литературы.

Нурабылла жырау Каражанов (1862-1927) исполнял дастаны “Алпамыс”, “Коблан”, “Едиге”, “Ер шора”, “Шарьяр”, сам сочинил дастан “Суржылан”, в которых естественно были мифические эпизоды. Ерполат жырау Рамберди улы, Курбанбай жырау Тажибай улы, Торе жырау, Отенияз жырау, Огиз (Хожамберген) жырау Нияз улы, Есемурат жырау Нурабылла улы, Кыяс жырау Хайратдин улы, Жуман баксы, Байнияз баксы, Каражан баксы, Жанабай баксы, Жапак баксы, Есжан баксы, Ибрайым баксы и другие также читали молитвы перед тем, как исполнять мелодии и отпраздновать свадьбы.

Яркими представителями джадидов в Каракалпакстане были Сейфулгабит Мажитов и Казы Маулик. Казы Маулик (настоящее имя Маудуд Бекмухамед улы) сохранился в памяти своих современников в качестве народношаира, катиба-переписчика и кыссахана-чтеца книг[6].

Таким образом, 1917-1918 годы характеризуются началом робкого наступления на господство ислама в культурной жизни народа. Исторически

обусловливалось, что консолидирующую роль в процессе борьбы за независимость играло мусульманское духовенство. Религиозные деятели вели регулярную работу по укреплению позиций ислама, сохранению незыблемости его догматов и норм, традиционных связей и исламских ценностей.

Было бы неверно считать, что в эти годы никаких изменений в положении мусульманских организаций, в функциях, выполняемых исламом, не было. Ислам попал в новую, необычную для всех веков его существования социально-политическую и идеологическую обстановку. В 1917-1918 годы в жизнь верующего наряду с мечетью стали входить, пусть пока очень немногочисленные, “красные чайханы”, читальные залы, клубы, появились такие формы пропаганды, как лекции, митинги, собрания.

ЛИТЕРАТУРА

1. Агзамходжаев С. Туркистонмухторияти. - Тошкент, 2000.
2. Более подробно см.: Казаков Э. Политика правительства Хорезмской республики в отношении исламской веры и служителей культа (1920-1924 гг.). Автореф. дисс...канд. ист. наук. Андижан, 1996; Карлыбаев М.А. История народного образования в Каракалпакии в XIX-начале XX веков. Автореф. дисс...канд.ист. наук. Нукус, 1996; Карлыбаев М. А. Медресе в Каракалпакии XIX - начала XX веков. Нукус: Билим, 2000.
- 3.Тухтаматов Т.Г. Амударьинский отдел (Социально-экономическое и политическое значение для Хорезмского оазиса). Нукус, 1977.- С.94-95; Алимов И.А. К вопросу об отношении Хорезмской республики к исламу //Научное и культурное наследие человечества - третьему тысячелетию. Тезисы докл. межд. симпозиума, посв. 2500-летию Бухары и Хивы. Ташкент,1997- С.217.
4. Досумов Я.М. Очерки истории Каракалпакской АССР. – Ташкент, 1960.
5. Сейтназаров М. История национально-освободительного движения в Каракалпакстане (1917-1920 гг.). Автореф. дисс...канд. ист. наук. Нукус. 1999; Таумуратов Н. История милиции Каракалпакстана в период восстановления национальной государственности (1917-1936 гг.). Автореф. дисс... канд. ист. наук. Нукус. 1999; Узбекистоннингянги тарихи. Иккинчи китоб. Узбекистон совет мустамлакачилигидаврида. Тошкент, 2000. С. 303.
6. Подробнее см.: Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустакиллик ватараккиетучункураш. Тошкент, 1999; Кудияров А. История города Чимбая.- Нукус. 2015.

ISHLAB CHIQRISH MUHITIDA INSON OMILINI HISOBGA OLGAN HOLDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Jasmina Lochinbek qizi To‘lasheva

Andijon mashinasozlik instituti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonida inson omili, ishchilarning hayoti uchun xavfli holatlar, insonlar bilan bog‘liq jarayonlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflar, xodimlarni xavflardan xabardor qilish va shaxsiy himoya vositalari haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarishdagi xavflar, inson omili, ishchining tajribasi, komfort sharoit, himoya vositalari, qo‘shimcha dam olish vaqtlari.

WAYS TO INCREASE LABOR SAFETY TAKING INTO ACCOUNT THE HUMAN FACTOR IN THE WORKING ENVIRONMENT

ABSTRACT

This article provides information about the human factor in the production process, dangerous situations for the life of workers, risks that may occur in processes related to people, informing workers about risks and personal protective equipment.

Key words: industrial risks, human factor, worker's experience, comfort conditions, protective equipment, additional rest periods.

Bugungi kunda ishlab chiqarish va sanoat kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan insonlarning hayot tarsi o‘zgarib bormoqda. Ularning bu jarayonlardagi faoliyatini to‘laligicha xavfsiz deya olmaymiz. Buning eng asosiy sababi inson faktori qatnashgan har qanday jarayonda xavflar

mavjud. Shularni inobatga olgan holatda ishlab chiqarish jarayonlarida ishchilarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, ishchilarning ish faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar, ishchilarning hayoti uchun xavfli bo‘lgan jarayonlar, xavflar yuzaga kelganda qanday ishlar olib borilishiga alohida e‘tibor qaratish zarur. Chunki har qanday holatda ham inson hayoti va xavfsizligi birinchi o‘rinda turadi.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish jarayonlarida ishchilarning xavfsizligini ta‘minlashda qator ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida ham insonlarning ish jarayonidagi xavfsizlik masalalariga yanada jiddiy e‘tibor qaratildi. Buning eng asosiy sababi, ishlab chiqarish jarayonlaridagi baxtsiz xodisalar natijasida kundan-kunga ko‘plab insonlarni jarohat olayotgani va ayrim holatlarda ishchi xodimlarning o‘limi bilan tugayotganidir.[1]

Hayot faoliyati xavfsizligi insonni xavfdan himoyalashga qaratilgan bo‘lsada, ko‘pchilik xollarda insonning o‘zi potentsial xavfni tug‘diruvchi, tashuvchi hisoblanadi. Qisqa aytganda, inson muhitga ta‘sir etadi, uni o‘zgartiradi, natija esa o‘gir oqibatlarga olib kelishi bilan tugashi mumkin buladi. Shu sababli, «inson-texnik tizim» sistemasi xavfsiz faoliyatda bo‘lishi uchun inson va texnik tizimni tashkil etuvchi barcha elementlarning ko‘rsatkichlari o‘zaro muvofiqlikda bo‘lishi talab etiladi. Agar bunday muvofiqlik («kelishiluvchanlik») bo‘lmasa quyidagi ko‘rinishdagi ko‘ngilsiz hodilar yuz beradi: insonning ish qobiliyati susayadi, umumiy va kasb kasalliklari ko‘payadi, avariyaalar, yonginlar, portlashlar sodir bo‘ladi, ishlab chiqarish jarohatlari yuzaga keladi.

Inson o‘zidagi tabiiy analizatorlar, ya‘ni sezgi a‘zolari orqali atrof-muhit bilan bevosita bog‘lanishda bo‘ladi. Ushbu sezgi a‘zolarining xarakteristikasini o‘rganish xavfsizlik sistemasini takomillashtirishda muxim rol o‘ynaydi. Bunday sezgi a‘zolariga ko‘rish, eshitish, titrashni sezish, haroratni sezish, og‘riqni sezish, ta‘m va xidni sezish, organik sezgi va harakat analizatorlarini misol keltirish mumkin.[2]

Yuqorida ta’kidlangan sezgi a’zolari ma’lum xarakteristikaga ega bo’lib, muhit faktorlarining keskin o’zgarishi ushbu analizatorlarning ish faoliyatiga salbiy ta’sir etadi. Natijada, turli xil kasb kasalliklari, jarohatlanishlar kelib chiqadi. Masalan, insonning eshitish a’zolari 16 Gts dan 20000 Gts gacha bo’lgan tovush chastotalarini eshita oladi. 16 Gts dan kichik bo’lgan infratovushlar ham, 20000 GTS dan yuqori bo’lgan ultratovushlar ham insonga salbiy ta’sir etadi.[3]

Yuqorida ta’kidlangan, sezgi a’zolari va analizatorlaridan tashqari, faoliyat xavfsizligini ta’minlashda insonning shaxsiy fazilatlarini, jumladan e’tibor, fikrlash, idrok qilish, emotsiya, xotirlash, tasavvur etish, o’ylash ham muhim rol uynaydi. SHu sababli, shaxsiy xavfsizlik rejimi, inson fazilatlarining faoliyat xavfsizligiga ta’siri kabi masalalarni o’rganish ham talab etiladi.

Inson omili bilan bog’liq bo’lgan xavfli vaziyat va jarohatlarni quyidagi uch darajaga bo’lish mumkin:

- shaxs (individual) darajasi (organizmning tug’ma yoki keyin o’zlashtirilgan vaqtinchalik yoki doimiy ruhiy va fiziologik xarakteristikalarini).
- muhit darajasi (mehnat sharoitlari, kollektiv munosabatlarning buzilishi, xavfsiz ish usullari haqidagi yo’riqnomalarning sifati pastligi, oilaviy va moddiy tashvishlar).
- jamiyat darajasi (kasbiy tavakkal, uning oqibatlarini haqida yetarlicha xabardor bo’lmaslik tarmoqda yoki regionda mehnat xavfsizligi masalalarini yaxshi tashkil etilmaganligi). [4]

Ishlab chiqarish faoliyatida inson organizmining o’ziga xos tomonlari va tashqi muhit omillari bir-biri bilan uzviy bog’lanishda bo’ladi. SHuning uchun xavfli vaziyatlarni tahlil qilishda "Inson-texnik tizim" sistemasini birgalikda ko’rib chiqish kerak bo’ladi. Shu narsa aniqlanganki, jarohatlanishning yuqori darajasi yosh hodimlarda va ish staji 10-15 yillik hodimlarda bo’lar ekan.

Yoshlik omili va kasbni egallashda kasbiy mahoratning yetishmasligi natijasida yuqori darajadagi jarohatlanish ishning birinchi yiliga to’g’ri keladi. Bu hodimda malakaning yetishmasligi, bilimining kamligi, xavfli vaziyatni oldindan ko’ra

bilmaslik, yo‘l qo‘yilgan xatoning oqibatlarini aniqlay olmaslik, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilolmaslik sababli bo‘ladi. Staj ortib borishi bilan jarohatlar soni kamayib boradi.[5]

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida ishchilarning xavfsizligini oshirish uchun dam olish xonalari, ish turiga qarab shaxsiy himoya vositalari, ishning turiga qarab qo‘shimcha dam olish vaqtlari belgilash zarur. Yana shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, ishlab chiqarishda inson omili natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning eng asosiy sabablaridan biri insonning ruhiy holatidir. Shuning uchun ham ishlab chiqarish jarayonida ishchilar bilan bog‘liq xavflarni oldini olish uchun xodimlarning ruhiy holatini ham nazorat qilib borish zarur.

XULOSA

Ishlab chiqarish jarayoni doimiy ravishda inson omili bilan bog‘liq bo‘ladi. Biz qanchalik harakat qilmaylik ba‘ribir xavf darajasini 0 foizga tushura olmaymiz. Chunki barcha jarayonlarda hech bo‘lmasa yashirin xavflar mavjud bo‘ladi. Shu sababli ham biz faqatgina ishlab chiqarish jarayonida ishchilarni mavjud bo‘lgan, oshkora va yashirin xavflar haqida doimo ogohlantirib borishimiz kerak. Bundan tashqari xavf yuzaga kelgan holatlarda qanday harakatlarish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar haqida oldindan ogohlantirib turishimiz kerak.

Ishchilarning yo‘riqnomalardan o‘z vaqtida va belgilangan tartib qoidalar bo‘yicha o‘tishlarini ta‘minlash ham jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni birmuncha kamaytiradi.

Ishchi hodimlar uchun qo‘shimcha o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilishi ham maqsadga muvofiqdir. Yana shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning sabablaridan biri ishchilarning ruhiy holati bo‘lganligi uchun ularning ruhiy holatiga ijobiy ta‘sir e‘tuvchi qo‘shimcha mashg‘ulotlar va hordiq chiqarishlari uchun sharoitlar yaratib berilishi zarur. Shularga amal qilingan holatda xavflarning sodir bo‘lish miqdorini sezilarli darajada kamaytirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni. 92-94b
2. Ibragimov E.I, Gazinazarova S, Yuldashev O.R. “Mehnat muhofazasi maxsus kursi” Toshkent, 2014. 61b
3. Qudratov A.Q, G‘aniev A, Yormatov G‘.Y. “Hayotiy faoliyat xavfsizligi”. Ma‘ruza kursi.. –Toshkent: “Aloqachi”, 2005. 233-235b
4. Yo‘ldoshev O.R, Raximov O.D, Xo‘jaqulova R.T, Xasanova O.T. “Mehnatni muhofaza qilish”. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Mehnat”, 2005. 127-128b
5. www.ziyo.edu.uz – Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi sayti.

BOLALAR XULQ-ATVORIDAGI MUAMMOLARNI TUZATISHDA ERTAK TERAPIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Qo‘chqarova O‘g‘iljon Umar qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universtiteti
oligofrenopedagogika mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Muyassar Xamidova

Nizomiy nomidagi Toshkent Pedagogika Universtiteti
oligofrenopedagogika kafedra mudiri, p.f.n.dotsent

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalardagi xulq-atvor muammolarini tuzatish va tarbiyalashda ertak terapiyasining ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: ertak terapiya, psixoterapiya, qo‘rquv, davolash, muammo, tarbiya, qadriyatlar.

THE IMPORTANCE OF FAIRY TALE THERAPY IN CORRECTING CHILDREN’S BEHAVIOR PROBLEMS

ABSTRACT

This article provides information about the importance of fairy tale therapy in correcting and educating children's behavior problems

Key words: fairy tale therapy, psychotherapy, fear, treatment, problem, bring up, values.

Farzand tarbiyasi bilan shug'ullangan ota-bobolarimiz ularga qiziqarli ertaklarni aytib berish orqali ularni komil inson sifatida tarbiyalash va vatanparvarlik ruhida

o‘stirishga intilishgan. Bugungi kunga kelib nafaqat tengdoshlari bilan bir xil rivojlanayotgan sog‘lom bolalarni tarbiyalashda balki, rivojlanishida va ruhiyatida turli nuqsonlar kelib chiqayotgan bolalarni psixologik davolashda ham terapiyaning bu turiga murojaat qilinmoqda. Xulqi og‘ishgan bolalarni jazolashga va ularga tahbeh berishga shoshilmasdan ular bilan suhbatlar uyushtirish va psixologlar yordamidan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda bolalarni kitobxonlikka bo‘lgan ishtiyoqi biroz susayganligi uchun, ularda tajovuzkorlik, pedagogik qarovsizlik va darslarni vaqtida o‘zlashtira olmaslik holatlari ko‘p uchrab turibdi. Ammo ko‘pchilik ota-onalar va bolalarni vasiylikka olgan shaxslar bola bilan yakka tartibda shug‘illanishdan oldin ularni jazolashga kirishadilar. Hech bir bola o‘z-o‘zidan ta’lim va tarbiyaga e’tiborsiz bo‘lib qolmaydi. Bolani psixologik yordamga muhtoj qiluvchi sabablar ham uning ruhiyatini rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu sabablar qatoriga biz quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Bolani bog‘chaga borishi;
- Turar joyining almashishi;
- Oilada yangi farzandning dunyoga kelishi;
- Ota-onalarning o‘zaro kelishmovchiligi;
- Oilaning barbod bo‘lishi;
- Yaqin insonini yo‘qotish.

Yaqin yigirma yillik ichida bolalarni psixologik muammolarini hal qilish va ularga ruhiy ko‘mak berishda ertak terapiyadan psixolog va defektologlar juda keng foydalanmoqda.

Xo‘sh ertak terapiyasi o‘zi nima? Ushbu tushuncha bir nechta ta’riflarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, ertak terapiyasi - bu ertaklar bilan davolash, qalbda yashovchi va hozirgi vaqtda psixoterapevtik bo‘lgan bilimlarni kashf qilish demakdir. Ikkinchidan, bu ma’no izlash, dunyo va undagi munosabatlar tizimi haqidagi bilimlarni ochish jarayonidir. Uchinchidan, ertak terapiyasi - bu bolaga ekologik ta’lim va tarbiya berish jarayoni

bo'lsa, to'rtinchidan, bu inson o'z orzusini amalga oshirishi mumkin bo'lgan maxsus muhitni yaratish vositasidir.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

- bolalarda tashvish va tajovuzkorlik darajasini pasaytirish;
- ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va yanada rivojlantirish;
- his-tuyg'ularni konstruktiv ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish;
- shaxslararo munosabatlarda hissiy tartibga solish qobiliyatini rivojlantirish.

Ertak terapiyasining yetakchi g'oyalari quyidagilardan iborat:

- o'z imkoniyatlari va o'z hayotining qadr-qimmatini anglash;
- hodisa va harakatlarning sabab-oqibat munosabatlarini tushunish;
- munosabatning turli uslublarini bilish;
- tashqi dunyo bilan mazmunli ijodiy aloqa o'rnatish;
- ichki kuch va uyg'unlik hissini uyg'otish.

Ertak terapiyani bolalarda qo'llashga defektolog va psixologlar maxsus tayyorgarlik ko'rishlari shart bo'lmaydi. Lekin bolalarga aniq tashxis qo'yish va davolash ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun defektolog va psixologlar bir nechta omillarni o'rganib chiqishlari va tuzatish ishlarini reja asosida olib borishlari zarur bo'ladi. Bolaga ertak terapiyani qo'llashdan oldin uni qanday muammo qiynayotganini, ruhiyatida qanday salbiy o'zgarishlar sodir bo'layotganini otalardan so'rash yoki bola bilan suhbat o'tkazish orqali bilib olish kerak bo'ladi. Bolaning muammosidan kelib chiqib unga ertak tanlash va bosqichma-bosqich ertakni bola hayotiga moslashtirgan holda qo'llab borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zinkevich-Evstigneeva ertaklarning psixologik-pedagogik funktsiyalariga ko'ra quyidagi tipologiyasini taklif qilgan:

- Badiiy psixoterapevtik;
- psixo-korrektiv;
- Didaktik;
- Meditatsion ertaklar.

Defektolog va psixolog tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab, ish uchun ertak turlari tanlanadi. Zinkevich-Evstigneeva ertaklar bilan ishlashning turli amaliy shakllarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Ertaklarni tinglash va tahlil qilish (talqin qilish);
2. Hikoyalarni aytib berish, jumladan:
 - a) butun guruhga tanish bo'lgan ertakni aytib berish;
 - b) tanish ertakni aytib berish va uning davomini yozish.
 - v) ertakni guruhli yakunlash.
3. Ertaklarning butunligicha kompozitsiyasi.
4. Ertaklarni qayta yozish (yoki qo'shish).
5. Ertaklarni sahnalashtirish (sahnalashtirish):

Ertak terapiyasi bolaga psixologik yordam berishning qulay va oson usuli hisoblanib bu bolalar bilan ishlashda innovatsion usul bo'lib, bolaga ertak yordamida yumshoq va beg'ubor ta'sir ko'rsatishga imkon beradi va shu bilan birga bolani rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi turli xil vazifalarni hal qiladi. Ertak terapiyasi bolaning o'z-o'zini anglashini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'zi bilan ham, boshqalar bilan ham aloqani ta'minlaydi, odamlar o'rtasida o'zaro tushunishni shakllantirishga va o'zini tutish va javob berishning zarur modellarini, o'zi va dunyo haqida yangi bilimlarni o'zlashtirishga hissa qo'shadi. Ertak terapiyasining tamoyillari bolani kuchli tomonlari bilan tanishtirish, uning ongi va xulq-atvor sohasini kengaytirish, maqbul xulosalarni izlash va hayotiy tajribalar bilan bo'lishishdir. Ushbu usul o'zini va boshqalarni tinglash qobiliyatini rivojlantiradi, yangi narsalarni qabul qilishni va yaratishni o'rganadi.

Ertak terapiyasidagi har bir dars jarayonida qo‘llab qo‘shimcha ravishda ba’zi muammolarni hal qilish imkoniyatiga erishish mumkin. Masalan, ixtiyoriy e’tiborni jalb qilish yoki guruhni yig‘ish, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash tuyg‘usini rivojlantirish yoki xotirani rivojlantirish, hissiy va xulq-atvor reaksiyalarini kengaytirish, ertak qahramonlari misollaridan foydalanib, inson xarakterlarini tushunishga o‘rganish shular jumlasiga kiradi.

Ertak terapiyasi - bu insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida to‘plangan tajribadan shaxsni integratsiyalashuvi, insonning tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlarini kengaytirish va yaxshilash uchun foydalanishga imkon beradigan usul bo‘lganligi uchun tarbiyasi va xulq-atvorida og‘ishish bo‘lgan bolalarni psixologik davolashda foydalanish ko‘rsatkichlari oshib bormoqda. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ertak terapiyasi - bu bolaning ichki dunyosini ochish va uning atrofidagi dunyoni kuzatishga qiziqish uyg‘otish, tajribalilardan foydalangan holda bolani tushunish, bolani kelajakka ishonchini uyg‘otish, atrofdagilar bilan munosabatini yaxshilash va jamiyatga qo‘shilishiga yordam berishning eng maqbul vositasi bo‘lib kelmoqda. Ertaklar bola hayotining barcha jabhalarini aks ettiradi: munosabatlar modeli ishlab chiqiladi, ma’naviy sog‘lom, barkamol shaxsni shakllantirishga hissa qo‘shadigan qadriyatlar haqida tushunchalar beriladi. Ertaklarning baxtli yakuni bolaga muammolarini haql qila olishiga ishonchni uyg‘otibgina qolmay, bu bolalarga qo‘rquvlardan xalos bo‘lishiga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Nishonova Z.T., Xodjaqulova D.I., Djumaboyeva M.B., Baykunosova G.Yu. “Kichik maktab yoshidagi bolalar xavotirlanish psixokorreksiyada ertak terapiyasidan foydalanish uslubiyati”, Toshkent, 2013 yil
2. M.P.Xamidova, M.Y.Ayupova ”Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi” FarDU, 2009.
3. Соколов Д.Ю. Сказки и сказкотерапия. – М.:Класс,1997.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATIDA SINONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.

G‘aybulloyeva Umida Ahmatovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, magistrant.

ANNOTATSIYA

Til vositalarining lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash badiiy matnlarga tayanishni, qator yozuvchi va shoirlar asarlarini tahlil doirasiga tortishni taqozo etadi. So‘nggi davr ijodkorlari asarlari xususidagi ilmiy tadqiqotlar xarakteri, asosan, adabiy tahlil doirasida ekanligi va bu jihatdan badiiy asar tilini lingvopoetik nuqtayi nazaridan o‘rganishda ehtiyoj ortganligi masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Lingvopoetika atamasi badiiy asar tilini o‘rganishda nisbatan keng qamrovli tushunchani o‘z ichiga olib, asarning badiiyligini ta‘minlovchi unsurlarni tilning barcha sathlari doirasida o‘rganadi. Shu o‘rinda “poetika” atamasiga ham shunday ta‘rif berishimiz mumkin: “Badiiy asar tuzilishi, uning turli qismlari orasidagi munosabat, badiiy nutq stilistikasi, ya‘ni badiiy nutq va uning xarakteri, turli badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati masalalarini qamrab oluvchi obyektga nisbatan poetika tamasi qo‘llaniladi”. “Poetika” atamasiga sinonim sifatida “Badiiyat” so‘zini ham qo‘llashimiz mumkin.

Badiiy asarning lingvopoetik tahlili tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy funksiyalari, va inson ma‘naviyatining in‘ikosi ekanini bir butun holda tasavvur etishimizga imkon yaratadi. Chunki lingvopoetika o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra filologiya sohasi tarmoqlarini o‘z ichida mujassamlashtirishga, uning bir butunligini ta‘minlashga qaratilgandir. Lingvopoetik tahlil jarayoni faqat yozuvchining tili va uslubi haqida ma‘lumot berish bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan davr tilining o‘ziga xosligi, yozuvchining so‘z boyligi, til vositalarining ifodalanish usullari, badiiy tasvir vositalarining til faktlari asosida aks ettirilishi, umuman tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo‘ladi. Badiiy asar tilini

tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi" atamasi bilan bir qatorda "tilning poetik vazifasi", "tilning badiiy vazifasi", "tilning estetik vazifasi" kabi jumlar tez-tez qo'llaniladi. Ammo shuni ham alohida aytish joizki, "tilning estetik vazifasi" atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan keng qo'llaniladi. Agarda biz biron badiiy asarni tahlil qilishga tortishimiz avvalida u qanday matnlardan tashkil topganini va undagi so'zlar ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'lingani haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz zarur. Xususan, barcha badiiy asarlar badiiy matnlardan tashkil topgan, badiiy matnlar esa o'zida "estetik vosita" ni jamlagan gaplardan iboratdir. Shu jarayonda yana bir narsani unutib qo'ymaslik maqsadga muvofiqdir. "Estetik vosita" faqat badiiy adabiyotda yozma manbalarda emas, balki so'zlashuv uslubida ham keng qo'llanishi mumkin. Shundan kelib chiqib fikr qilsak "estetik vosita" o'z ko'lamini ekspressivlik, badiiylik va poetiklik atamalari bilan kengaytirib oladi.

Sinonimlar esa o'zbek tilining lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib, tilda bu kabi so'zlarning ko'pligi, tilning estetik vazifasini yanada yorqinroq yuzaga chiqarishga yordam beradi. Matnlarda sinonimlarni qo'llashdan ikki maqsad ko'zda tutiladi: qaytariqlarni oldini olish va emotsional ekspressivlikni oshirish.

Kalit so'zlar: poetika, madaniyat, sinonimlar, emotsionallik, ekspressivlik.

Ijodkorning individual ijodini o'rganish murakkab jarayon bo'lib, u ham adabiy, ham lingvistik tahlil imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Va shu tarzda shoira ijodiy tafakkurining o'ziga xos jihatlarini qay tarzda yuzaga chiqishini tekshiradi.

Ijodkorlar o'z asarlaridatilimizdagi sinonimlardan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni topib qo'llashga harakat qiladilar, buning uchun sinonimlarning qo'shimcha ma; no ottenkasi, uslubiy bo'yog'i, qo'llanishdagi xususiyatiga e'tibor qaratadilar. Sinonimlarning amaliy ahamiyati shundaki, tilga olingan xususiyatlar, ular ifodalashi zarur bo'lgan mazmun uchun eng maqbulini tanlash imkoniyatini beradi.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetikasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, uning she'rlarida ritm, ohangdorlik eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shoiraning o'ziga xos ifoda usuli, xalq og'zaki ijodiga xos ko'p ma'nolilik, xalq

qo‘shiqclariga yaqin ohangdorlik, sinonimlardan o‘z o‘rnida, to‘g‘ri va unumli foydalanish mavjud bo‘lib, uning she‘rlariga o‘zgacha ruh, ritm mahorat bilan singdirib yuborilgan, natijada adabiy til bilan jonli tilning qorishiq holda kelishi, shoira ijodining jozibaliligi, soddaliligi va tushunarligini ta‘minlagan.

Shoira she‘rlarida emotsional-ekspressiv leksikaning manbasi hisoblangan sinonimlardan qanchalik ustalik bilan keng foydalanganligini uning she‘rlari tahlilida yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

Toza yurak tovonlarda toptalgan mahal,

Azal ko‘z yosh **qayg‘u g‘amga** yem bo‘lib kelgan.

Makr-u hiyla bijg‘igan bu dunyoda azal,

Qo‘zichoqlar bo‘rilarga yem bo‘lib kelgan.

(“Bo‘rilar esshigida” 21-bet)

Ushbu she‘rda qo‘llangan qayg‘u –g‘am, makr-u hiyla so‘zlari o‘zaro sinonimlikni hosil qilgan bo‘lib, sinonimlarning bu holatda ishlatilishi lirik qahramon tuyg‘ularining asl holatini ochib berishga xizmat qiladi. “Qayg‘u –boshga tushgan ruhiy azob, g‘am, musibat” (O‘TIL.I,223-bet), “G‘am-so‘zi esa arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, qayg‘u, hasrat, g‘am alam degan ma‘nolarni bildiradi. (O‘TIL.I,434-bet). Keyingi misralarda qo‘llanilgan makr-so‘zi arabchadan olingan bo‘lib hiyla, nayrang, aldov ma‘nolarini ifodalasa, unga sinonim bo‘lib kelgan makr so‘zi ham arabcha so‘z hisoblanib, makkorlik, ayyorlik ma‘nolarida keladi. Shoira ushbu sinonimlarni yonma yon qo‘llash bilan she‘rning jozibadorligini yanada oshirgan. O‘z davrida haqiqat deb kurashgan qahramon makr-u hiyla to‘la dunyoda qayg‘u g‘amga yem bo‘layotgani va bu kurashga otlangan qahramon doimo bo‘rilarga yem bo‘lib kelayotgani o‘z ifodasini topgan.

Ota dunyo, bu o‘ylarni o‘zing hal qil yech,

Bolalaring ehtiyot qil har cho‘pdan, xasdan.

Loqayd bo‘lmay sharsharaning toza suvin ich,

Bilib-bilmay kimdir uni loyqalatmasdan.

(“Xayollarim parday to‘zg‘ir”,48-bet)

Misralarda qo‘llanilgan: “Cho‘p-forscha darxt, yog‘och, xoda, novda, shox bo‘lagi...” (O‘TIL,525-bet) ma‘nosini ifodalasa, “Xas-xashak, shox-shabba, quruq shoxcha, quruq o‘simlik poyasi” (O‘TIL,387-bet) ma‘nolarini anglatadi. Ketma-ket keltirilgan bu ma‘nodosh so‘zlar she‘rning ifoda mazmunini ochib berish bilan birga unga emotsional-ekspressivlik ham bag‘ishlashga xizmat qilgan.

Ko‘rinadiki, Halima Xudoyberdiyeva she‘rlarida emotsional ekspressiv leksikaning birlamchi manbasi bo‘lgan sinonimlardan keng foydalanilgan. Shoir she‘rlarining lug‘aviy tarkibi juda boy va rang-barang bo‘lib, ularda so‘zlarning o‘rinsiz takrori uchramaydi. Bunga esa shoir aynan sinonim so‘zlardan mohirona foydalanganligi tufayli erishgan. She‘riyatda sinonimlarning bu kabi to‘g‘ri va o‘rinli ishlatilishi asar qimmatini va qiymatini oshirishga xizmat qilgan. Shoiraning sinonimlarni o‘rinli qo‘llashda quyidagi maqsadlar ham to‘laqonli yuzaga chiqqan:

- Badiiy ifodaning ta‘sirchanligini oshirish;
- So‘zlarni takror ishlatishdan qochish;
- Uslubning ravonligi;
- Fikrni aniq, lo‘nda, ixcham ifodalash;
- O‘zbek tilining lug‘at tarkibi boy ekanini namoyish etish;
- Misralarni vaznga solish, qofiya hosil qilish, turli badiiy san‘atlarni yuzaga

keltirish va h.o.

Sinonimlar tilning lug‘at tarkibini boyitishga xizmat qiladi, badiiy adabiyot namunlarida tasvirlanayotgan lavha, timsol, voqea-hodisalarning ta‘sirchan, jozibali, ohangdor bo‘lishiga olib keladi. Shoir Halima Xudoyberdiyeva ayni bir ma‘noni bildiruvchi birdan ortiq til birlilarini muayyan maqsadni ko‘zlab qo‘llagan va o‘z maqsadiga to‘laqonli erishgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Badiiy adabiyot insonning olamini boyitadi, ruhiyatini tarbiyalaydi, qalbimiz va ongimizda odamiylik hislarini parvarishlaydi. Xuddi shunday tilning boyligi va nutqning jozibadorligi, ta‘sirchanligini ta‘minlashda sinonimlarning ahamiyati katta. Sinonimlar muhim tasviroy vosita sifatida badiiy manzaralar yaratishga, lirik qahramon holatini, ichki kechinmalarini yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So‘z estetikasi. T-Fan, 1981. 128-b.
2. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so‘z. Toshkent. Fan. 1993
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. f.f.d. disser. avtoreferat. Toshkent. 2009
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T-Fan. 2008
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T-Fan 2002
6. O‘zbek tili leksikologiyasi. T-Fan 1981
7. H. Xudoyberdiyeva. Osoyishta sham. T-O‘zbekiston, 2017
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 1-tom.

MASOFAVIY O‘QITISH TIZIMINI INGLIZ TILI TA’LIMIGA JORIY QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Eshchanov Marat

EFL teacher

Samarkand state university of veterinary medicine, animal husbandry and
biotechnologies, Nukus branch

ANNOTATSIYA

XXI asr yangi axborot texnologiyalari asri bo‘lib, ta’lim, iqtisod, siyosat va boshqa bir qator sohalarda mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bir qancha o‘zgarishlar va yangiliklar yuz berdi. Ular orasida ta’lim sifatini yanada yaxshilash va mukammalashtirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Maqola yosh avlodning yetuk darajada bilimli va savodli bo‘lib yetishishiga yordam beruvchi, ularning kelajakda har tamonlama malakali kadr sifatida o‘zlarini namoyon qilishlari va davlatimiz ravnaqiga ulkan hissa qo‘shishlari uchun ta’lim sohasida axborot texnologiyalarini jadal ravishda o‘stirishga, shu jumladan, masofaviy ta’limni ta’lim tizimiga joriy qilishga erishishda amal qilinadigan pedagogik texnologiyalarini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: masofadan o‘qitish, talaba, ingliz tili o‘rganuvchilari, mustaqil va qulay o‘qish, audio, video va matnli materiallar, o‘zlashtirish topshiriqlari, texnologiya

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

АННОТАЦИЯ

XXI век – век новых информационных технологий, и за годы независимости в Узбекистане произошел ряд изменений и нововведений в сфере образования,

экономики, политики и ряде других областей. Среди них было проведено несколько работ по дальнейшему совершенствованию и повышению качества образования. В статье поддерживается стремительное развитие информационных технологий в сфере образования, которые помогают молодому поколению стать всесторонне образованным и грамотным, чтобы в будущем проявить себя как полноценные кадры и внести большой вклад в развитие нашей страны и также отражаются педагогические технологии, используемые для достижения внедрения дистанционного обучения в систему образования.

Ключевые слова: дистанционное обучение, студент, изучающие английский язык, самостоятельное и доступное обучение, аудио-, видео и текстовые материалы, контрольные задания, технология

METHODOLOGICAL BASES FOR IMPLEMENTING THE SYSTEM OF DISTANCE LEARNING IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION

ANNOTATION

The 21st century is the century of new information technologies, and over the years of independence, Uzbekistan has undergone a number of changes and innovations in the field of education, economics, politics and a number of other areas. Among them, several works were carried out to further improve and improve the quality of education. The article discusses the rapid development of information technologies in the field of education, which help the younger generation to become comprehensively educated and literate in order to prove themselves as full-fledged personnel in the future and make a great contribution to the development of our country; it also reflects the pedagogical technologies used to achieve the introduction of distance learning in education system.

Key words: distance learning, students learning English, independent and accessible learning, audio, video and text materials, control tasks, technology

Distance learning is an independent and convenient way of learning online. Independent reading develops a person's independent thinking, assessment of the

Keywords: international assessment program, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, international research, text, mathematics, natural sciences, mathematical domain, cognitive domain.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan muhim islohatlardan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq

ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi 997-sonli qarorini keltirish mumkin. Bu qarorda xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) - boshlang’ich 4-sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushunish darajasini baholash uchun, (TIMSS) - 4- va 8-sinf o’quvchilarining matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan o’zlashtirish darajasini baholash uchun, (PISA) -15 yoshli o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan o’zlashtirish darajasini baholash uchun hamda (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’qitish va ta’lim olish muhitini hamda o’qituvchilarning ish sharoitlarini o’rganish bo’yicha aniq va zarur bo’lgan yo’nalishlar ko’rsatib berilgan.

PIRLS-2021 tadqiqotiga mamlakatimizdan 180 ta maktabdan 6000ga yaqin o’quvchilar va ularning ota-onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari qatnashishdi. Tadqiqot doirasida 4-sinf o’quvchilarining matnni o’qish, tushunish, xulosalar chiqarish, matnlardagi g’oyalar va fikrlarni o’zaro bog’lash darajalarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlarni bajarish bilan birgalikda o’quv jarayonidagi muhitni aniqlashga qaratilgan so’rovnomalarda qatnashish ham talab etiladi.

Shuningdek, ota-onalar ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar, o’quvchining uyidagi muhit va ta’lim muassasasi bilan munosabatlariga oid so’rovnomada qatnashdilar. Tadqiqotda qatnashuvchi maktablar va o’quvchilar Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda tasodifiylik tamoyiliga asoslanib tanlab olingan. Ushbu tanlovda ta’lim tili, o’quvchilarning soniga ko’ra katta-kichiklik mezonlari ham inobatga olingan. Tadqiqotlar o’zbek, rus va qoraqalpoq tillarida o’tkazildi.

Bugungi kunda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markaz tomonidan TIMSS-2023 xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

2023-yil TIMSS xalqaro tadqiqotining o’tkazilishiga ko’ra sakkizinchi davriyligi hisoblanadi va ushbu tadqiqotda O’zbekiston Respublikasining 4- va 8-sinf o’quvchilari ilk marotaba qatnashishadi. TIMSS-2023 xalqaro tadqiqoti yangicha

dizaynda o‘tkazilishi va unda - oson, o‘rta va qiyin bo‘lgan murakkablik darajasini o‘z ichiga olishi rejalashtirilgan. Bunda barcha davlatlarning natijalari inobatga olinadi, ammo yuqori natijaga erishgan mamlakatlar yuqori o‘rinlarni egallashi mumkin bo‘ladi.

TIMSS-2023 matematikani baholash tizimi ikki yo‘nalishda tashkil etiladi:

- fanga oid sohalarni baholashga mo‘ljallangan mazmun sohasi;
- fikrlash jarayonini baholashga mo‘ljallangan kognitiv soha.

To‘rtinchi sinflarda mazmun sohalarga bag‘ishlangan TIMSS matematik baholashning maqsadli foizlari:

Sonlar va amallar	50 %
Geometriya va o‘lchashlar	30 %
Ma’lumotlar bilan ishlash	20 %

To‘rtinchi sinflarda kognitiv sohalarga bag‘ishlangan TIMSS matematik baholashning maqsadli foizlari:

Bilish	40 %
Qo‘llash	40 %
Mulohaza yuritish	20 %

To‘rtinchi sinflarda TIMSS-2023 tabiiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha baholashning mazmun sohalariga oid maqsadli foizlar

Hayot haqidagi fan	45 %
Fizika	35 %
Yer haqidagi fan	20 %

PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlariga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tayyorlashda xalqaro tadqiqotlarning o‘tkazilish natijalari bo‘yicha qo‘llanmalarni o‘rganish, PIRLS hamda TIMSS mashq daftarlarida berilgan topshiriqlarni tahlil qilish, bu borada yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar tajribasini o‘rganish samarali bo‘lishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori. 2018-yil 8-dekabr. <https://lex.uz>.
2. Abdixadirovna, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 696-700.
3. Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin. TIMSS 2019 baholash qamrov doirasi. Toshkent-2021.
4. Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin. PIRLS-2021 baholash qamrov doirasi. Toshkent-2021.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING MATN BILAN ISHLASH KO‘NIKMA LARINI SHAKLLANTIRISH

Primova Nafisa Xusanovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida matn ustida ishlash bosqichlari, hamda turlari yoritilgan.

Kalit, so‘zlar: bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya matn, tahlil, badiiy asar, bosqich, analiz, sintez, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash.

ABSTRACT

This article describes the stages and types of work on the text in primary school reading classes.

Key words: knowledge, skill, competence, competence text, analysis, artistic work, stage, analysis, synthesis, independent thinking, critical thinking.

Hozirda boshlang‘ich ta’lim tizimining asosiy vazifalari o‘quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash maqsadida ularga mustaqil fikrlash, o‘zligini anglash, bilimlarni o‘rganishda, maktabda va maktabdan tashqari ishlarda faollik, boy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni o‘rgatish o‘z shaxsidagi “men”ni tanitish, yuksak axloqiy fazilatlar va estetik ruhda tarbiyalashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta –maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarorida o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning

ta'minlanganligi umumiy o'rta ta'lim davlat standartining asosiy prinspsipi ekanligi belgilab qo'yilgan.

Boshlang'ich sinf “Ona tili o'qish savodxonligi” fanida o'tiladigan har bir mavzuning mohiyatiga kirishda esa, matn ustida ishlashning ahamiyati katta. Agar har bir o'qituvchi kichik o'quvchilarni matn ustida uzluksiz ravishda namunadagidek ishlata bilsa, bolalar ham bunga asta-sekinlik bilan o'rganib boradilar va ularda badiiy asarlar bilan ishlash borasida istalgan ko'nikma hosil bo'ladi. Natijada bola shaxsida fikr kishisi shakllanadi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida badiiy asarlarni didaktik tahlilga tortish uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

1. Birinchi bosqich (sintez). Bu bosqichda kichik kitobxonlar matnni yaxlit idrok etadilar, asar mazmuni va undagi tasviriy ifoda vositalari bilan tanishadilar.

2. Ikkinchi bosqich (analiz)da tarbiyalanuvchilar asardagi voqealar rivojining izchilligini belgilash, qahramonlar xulq-atvori va tabiatiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini aniqlash (qahramonning mazkur vaziyatda nega shunday qilgani va buning sabablari o'rganiladi), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholashdan iborat.

3. Uchinchi bosqich (ikkinchi sintez). Bu bosqichda asar qahramonlarining muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni bir-biri bilan taqqoslash va baholash, asardagi yetakchi qarashlarni aniqlash, badiiy asarni hayotni bilish manbayi va san'at asari sifatida baholash (qanday ma'lumotlarga ega bo'linadi, asar nimaga o'rgatadi, muallif o'z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan hamda ta'sirli tarzda yetkaza oldi va hk.lar)dan iboratdir.

Asarlarning didaktik tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Tanlab o'qish.
2. O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o'z so'zlari bilan javob berishi.
3. O'quvchilarni savol berishga o'rgatish.
4. Matnni tasvirlash.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari darslarni tashkil etishda, matn bilan ishlashda ana shu jihatlarga alohida e‘tiborini qaratishi zarur. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida o‘quvchini bemalol chiroyli va mazmunli matn tuzishiga yordam beradigan topshiriqlarning borligi o‘quvchilarni yanada o‘z fikrlarini yozma va og‘zaki bayon eta olishga o‘rgatmoqda. Quyidagi topshiriqlar o‘quvchining matn tuzishiga beminnat yordam beradi deyishimiz mumkin.

“Men ishlab chiqaradigan dori” mavzusida kichik matn yozing. Matnda quyidagi ma‘lumotlar bo‘lishiga ahamiyat bering:

- dorining nomi;
- qanday kasallikka davo bo‘lishi;
- nima uchun bu dori kerak bo‘ladi deb o‘ylashingiz;
- u dorini birinchi kimga berishingiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchining zamon bilan hamnafas faollashuvi, ruhiy olamining murakkablashuvi metodika ilmi oldiga badiiy asar ustida ishlash yo‘llarini boyitish va kengaytirish talabini qo‘yyapti. Har bir o‘qituvchi matn ustida ishlashda ana shu talablardan kelib chiqqan holda, ko‘proq izlanishi va o‘quvchini olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishi uchun kompetensiya ega shaxs sifatida shakllantirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta –maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori. –lex.uz.
2. Azimova I va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. –T.: Respublika ta‘lim markazi, 2021
3. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlar bilan ishlash metodikasi. –Samarqand. 2019y. 173-174 betlar.
4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta‘lim talabalari uchun darslik. –T.: “Nosir” 2009y. 89-b.

BOSHLANG‘ICH SINIF “MATEMATIKA” DARSLARIDA VAQTGA DOIR MASALALARNI O‘RGATISH METODIKASI

Xayriyeva Maxliyo Pardayevna

Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 38-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada matematik masala, boshlang‘ich sinflarda “vaqt” tushunchasining o‘rganilishi, vaqtga doir masalalarni yechishga o‘rgatish haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, masala, vaqt, sekund, soat, millisekund, kun, oy, tafakkur, xotira, ko‘nikma, mantiqiy fikrlash.

ABSTRACT

This article covers a mathematical problem, the study of the concept of "time" in elementary grades, and teaching to solve time-related problems.

Key words: mathematics, problem, time, second, hour, millisecond, day, month, thinking, memory, skill, logical thinking.

Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, matematika o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash malakasini oshirishi, ularning o‘z fikrlarini aniq, to‘g‘ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi. O‘qituvchining vazifasi - bolalarga matematikani o‘qitishda bu imkoniyatlardan samarali foydalana olishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4708-sonli Qarorida iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning matematika fani bo‘yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini, sovrinli o‘rinlarni egallashini ta‘minlash matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida ta‘lim muassasalarida TIMSS xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ishtirok etishlari uchun bir qator ishlar olib borilmoqda.

Bola maktabdagi mashg‘ulotlarning birinchi kunidayoq masala bilan uchrashadi. Birinchi sinf o‘quvchilari bilan qilinadigan dastlabki suhbatlarning birida o‘qituvchi o‘quvchi qanday hayotiy tajriba va bilimga ega ekanligini aniqlash maqsadida eng oson masalaga murojaat etadi. Masalan: “Sening to‘rtta qalaming bor edi. Sen yana bitta qalam olding. Sendagi qalamlar nechta bo‘ldi?”


Matematik masala o‘zi nima?

Matematik masala - bu bog‘liqli ixcham hikoya bo‘lib, unda ba‘zi kattaliklarning qiymatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ularga bog‘liq va masala shartida ular bilan ma‘lum munosabatlar orqali bog‘langan boshqa kattaliklarning qiymatlari izlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda “vaqt” tushunchasi 1-sinfdanoq kiritiladi. 2-sinfda vaqtni aniqlashga doir topshiriqli misol va masalalar o‘rgatiladi. Masalan, “Feruzaning yakshanba kuni uyga vazifa qilib berilgan she‘rni yodlash uchun yarim soat vaqti ketdi. Agar u she‘r yodlashni soat 10:00 da boshlagan bo‘lsa, nechada tugatgan?”, kabi masalalarni yechishda o‘quvchilar sarflangan vaqtni topishga va vaqtni aniqlashga o‘rganadilar.

3-sinfda “Vaqtga doir masalalar yechish” bo‘limida masalalar biroz murakkablashadi. Hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga ham e‘tibor qaratiladi.

- 1 Bir oydagi kunlar sonini eslatuvchi yana bir usul – bu barmoq bo‘g‘inlaridir. Tepaliklar 31 kun, bo‘g‘inlar orasi 30 kundan deb hisoblang. Fevral 28 kun. Kabisa yilida esa fevral 29 kun bo‘ladi. Har bir oyning kunlar sonini yozib chiqing.



Oy	Kun
Yanvar	
Fevral	
Mart	
April	
May	
Iyun	

Oy	Kun
Iyul	
Avqust	
Sentabr	
Oktabr	
Noyabr	
Dekabr	

O‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida bevosita o‘z barmoq bo‘g‘inlari orqali oylarning necha kundan iboratligini aniqlash ko‘nikmasini hosil qiladilar.

4-sinfda ushbu masalalar yana ham murakkablashtirilib, “millisekund” tushunchasi kiritiladi.

- 2 Maktabda 4-sinflar o‘rtasida 60 m ga yugurish bo‘yicha musobaqa o‘tkazildi. Jadvalda eng tez yugurgan 3 ta o‘quvchining natijalari keltirilgan.

O‘quvchining ismi	Yugurgan vaqti	O‘rni
Anvar	10 s	
Olim	9 s 500 ms	
Kamol	10 s 300 ms	

Millisekund (ms) ham vaqt o‘lchov birligi bo‘lib, u sekund (s)ning 1000 dan bir ulushini tashkil etadi:

$$1 \text{ s} = 1000 \text{ ms}$$

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf matematika darslarida vaqtni topishga doir masalalarni yechishda o‘qituvchi ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga, bevosita hayotiy misollar orqali masala mazmunini tushuntirishga harakat qilishi dars samaradorligi va o‘quvchilar tafakkurining oshishiga ijobiy ta’sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4708-sonli Qarori. –lex.uz.
2. Haydarov B va boshqalar. Matematika. 2-sinf. Darslik. Toshkent-2022
3. Haydarov B va boshqalar. Matematika. 3-sinf. Darslik. Toshkent-2022
4. Haydarov B va boshqalar. Matematika. 4-sinf. Darslik. Toshkent-2022
5. Jumayev M. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiyalar, 2005 y.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI TALABLARI ASOSIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI TAYYORLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH (PIRLS bo‘yicha)

Hamrayeva Matluba Olim qizi

Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 38-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
2-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi haqidagi ma‘lumotlar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarni PIRLS sinovlariga tayyorlash uchun o‘quv topshiriqlarini tayyorlash jarayonida e‘tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: PIRLS, xalqaro baholash dasturi, ko‘nikma, topshiriq, tadqiqot, ijodiy fikrlash, xorijiy tillar, axborot kommunikatsion texnologiyalari.

ABSTRACT

This article provides information about the PIRLS international assessment program, aspects that primary school teachers should pay attention to in the process of preparing educational tasks to prepare students for the PIRLS tests.

Key words: PIRLS, international assessment program, skill, assignment, research, creative thinking, foreign languages, information communication technologies.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta‘lim tizimi shiddat bilan rivojlanmoqda. Unga Xalqaro baholash tizimining kirib kelishi ham muhim o‘zgarishlardan biri bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra PIRLS,

TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlari mazmun va mohiyati, Xalqaro baholash dasturlarining standartlarida (Frame Work) qayd etilgan kompetensiyalar, o'tgan yillarda o'tkazilgan xalqaro baholash dasturlarida taqdim etilgan topshiriqlar tahlili kabi masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Shunga ko'ra bugungi har bir fan o'qituvchisi Xalqaro baholash tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi va o'z o'quvchilarini PIRLS bo'yicha o'tkaziladigan sinovlarga tayyorlashi muhim vazifadir. Shu o'rinda o'rinli bir savol tug'iladi PIRLS o'zi nima?

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

PIRLS dasturida 4-sinf o'quvchilarining an'anaviy matnlarni tez, ravon, ifodali o'qiy olishi amas, balki darslikdan tashqari berilgan matnlarni o'qib, uni qanchalik tushunishi va talqin qila olishi hamda fikrlarini ravon tilda yozma bayon eta olish ko'nikmalari baholanadi.

PIRLS topshiriqlari nazariy doirasi jihatdan to'rt xil asosiy o'qish ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi:

- matnda ochiq-oydin ifodalangan axborotni topish;
- uning asosida oddiy aqliy xulosalar chiqarish;
- matndagi g'oya va axborotlarni sharhlash, integratsiyalash;
- matn shakl va mazmunini baholash.

Demak, biz, boshlang'ich sinf o'qituvchilari PIRLS bo'yich matnlar yuzasidan topshiriqlarni tuzishda aynan shu talablarga javob beruvchi testlarni tuzishimiz lozim bo'ladi.

PIRLS dasturi talablari asosida o'quvchilarga topshiriqlarni tayyorlashda o'qituvchilar quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

❖ matn tanlashda xalqaro tadqiqotlar talablariga mos keluvchi (o'quvchilar PIRLSga tayyorlanishlari uchun tavsiya etilgan matnlarga o'xshash) matnlarni tanlashi;

❖ topshiriqlarni tuzishda o‘quvchilarni tanqidiy va mantiqiy fikrlashga undovchi savollarni tuzishi;

❖ matn asosida topshiriqlarni tuzishda xorijiy tillar va axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni o‘rganishga qiziqish uyg‘otuvchi jihatlarga ham e‘tibor qaratishi;

❖ topshiriqlar nafaqat o‘quvchining yosh va individual xususiyatlariga mos bo‘lishiga, balki ularni o‘z darajalaridan bir pog‘ona yuqoriga ko‘tarishiga sabab bo‘lishiga ham e‘tibor berishi;

❖ topshiriqlar matn mazmuniga to‘la mos bo‘lishi bilan bir qatorda, qiziqarli, izlanuvchanlikka undovchi bo‘lishi;

❖ matn va topshiriqlar bilan ishlashda o‘quvchi hayot faoliyatida duch kelishi mumkin bo‘lgan voqealarda ulardan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘qituvchilar o‘zlarida xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o‘quv topshiriqlarini tayyorlash ko‘nikmasini hosil qilishlari uchun ko‘proq o‘z ustida ishlashlari, xalqaro tajribalarni o‘rganishlari, xorijiy tillarni o‘rganishlari, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish malakasiga ega bo‘lishlari, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganib, ularni inobatga olishlari, hamkasblari bilan ko‘proq tajriba almashishlari lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori
2. Abdixadirovna, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 696-700.
3. PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. –Toshkent 2020y. 209, 398-399- betlar.

OGAHIY G‘AZALLARIDA TALMEH SAN’ATINING O‘RNI

Ashurova Hamida Aliyor qizi

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Adabiyotshunoslik: (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

E-mail: mumtozijod@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning ga‘zallari tahlil qilindi. G‘azallarining mavzu ko‘lami, g‘oyaviy yo‘nalishi, obrazlar tizimi (Ayyub alayhissalom misolida) tadqiq etildi. Talmeh she‘riy san‘ati qo‘llangan g‘azallaridan parchalar keltirilib, atroflicha ilmiy tomonlama izohlab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy g‘azallari, talmeh san‘ati, mahorat, Ayyub (a.s.), tasavvuf, timsol, ramziy timsol, komillik;

Talmeh arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “ko‘z qirini tashlamoq”, “bir nazar tashlash”, “ishora qilmoq”, degan ma‘nolarni bildiradi. Mumtoz adabiyotda badiiy san‘at sifatida u mashhur qissa, maqol, tarixiy va afsonaviy voqea, shaxs, mashhur asar qahramonlari nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham ifodalashdir. Bu badiiy san‘at adabiyotimizda keng qo‘llanilgan. XIX asr mumtoz adabiyotiga katta hissa qo‘shgan Muhammad Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy ham bu badiiy san‘atdan ko‘plab g‘azallarida foydalangan.

Ma‘lumki, Sharq she‘riyatida g‘azal janri yetakchi o‘rinni egallaydi. Mumtoz adabiyotimizning namoyondalaridan biri Ogahiy she‘riyati, mazmunan chuqur, falsafiy teran bo‘lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning timsollar olami, tashbehu qiyoslar silsilasi o‘ziga xos, yangicha. Shoir har san‘atning, har bir detalning, ungacha ilg‘amagan qirralarini, borilmagan ma‘naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Ogahiy she‘riyatida mifologik va diniy-

tarixiy obrazlar g‘oyatda rangbarang bo‘lib, ularning ayrim belgi va xususiyatlari she‘riyatida ramzga aylanib ketgan.

Diniy rivoyatlarning taraqqiyot bosqichlarini ko‘zdan kechirish shuni ko‘rsatadiki, islom bilan bog‘liq bo‘lgan payg‘ambarlar obrazi Qur‘oni karim orqali yozma adabiyotga o‘tgan. Ana shunday obrazlarga xos belgi va xislatlarga ishora etish orqali obrazli ifoda yuzaga keladi. Ko‘pgina shoirlarimiz obrazlarning an‘anaviy sifatlarini saqlagan xolda, ularni yangicha bo‘yoqlar bilan bezaydilar.

Qur‘oniy mavzular va obrazlarning jahon hamda o‘zbek adabiyotiga ko‘chib o‘tishini biz bevosita Ogahiy she‘riyati misolida ko‘rishimiz va bu islomiy nuqtai nazardan ibratli bo‘lish barobarida, o‘zbek adabiyotining islom adabiyoti bilan chambarchas bog‘liqligi, moziydan uzilmaganligini ham ko‘rsatadi.

Yozma adabiyotda keng qo‘llanilgan an‘anaviy obrazlardan biri – Ayyub payg‘ambar bo‘lib, uning bosh sifati sabru-toqat va chidam egasi ekanligidir. Yahudiy va islomiy manbalarda bu payg‘ambarga xos xislat va fazilatlar haqida ma‘lumotlar mavjud.

Ogahiy payg‘ambar siymolarga, xususan, Ayyub (a.s.) obraziga o‘ziga xos tarzda yondashadi. Buning isbotini shoirning orifona, oshiqona, diniy mazmundagi g‘azallarida uchratishimiz mumkin. G‘azallarida Ayyub alayhissalomga ishora qilish orqali yor vasliga bo‘lgan umidvorlikni, hijron azoblariga sabr-bardoshni ifodalashning o‘ziga xos vositasidir.

Mumtoz she‘riyatdagi an‘anaviy obrazlarni (Iso, Ya‘qub, Yusuf, Ayyub, Maryam, Xizr, Sulaymon) alohida shoir asarlari, xususan, lirikasi asosida tahlil qilish o‘sha ijodkor dunyoqarashi, badiiy mahorati, iste‘dodi qirralarini teranroq idrok qilish va kashf etishda qo‘l keladi. Ogahiy lirikasida uchraydigan Ayyub (a.s.) bilan bog‘liq baytlarni esa 2 guruhga bo‘lgan xolda tahlil qilishimiz mumkin:

1. Lirik qahramonning ruhiyatini ifoda etish orqali Ayyub (a.s.) ni ibrat qilib ko‘rsatuvchi baytlar.
2. Ayyub (a.s.) ning sabr-toqati, bardosh va chidamliligi orqali tasavvufiy g‘oyalar talqini aks etgan baytlar.

Ogahiyning “Сарвинг саркашлиги беважх эмас”⁶ deb boshlanuvchi g‘azalida ham Ayyub (a.s.) nomi zikr etilgan, talmeh san‘atini uchratishimiz mumkin:

**Эй кўнгул, осойиши билан базми висол истар эрсанг,
Чек балойи ҳажр айлаб сабр аро Айюблук.**

Bu baytda talmeh san‘atini “Ayyubluq” so‘zi yuzaga keltirgan. Baytda Ayyub (a.s.) haqidagi rivoyat va afsonalarga ishora qilish yo‘li bilan talmeh san‘atidan foydalanilgan. Buning uchun esa she‘riy san‘atda ifodalangan shaxslarning tarixini yaxshi bilish lozim bo‘ladi. Ma‘lumki, Qur‘oni karimda zikr etilgan har bir payg‘ambarning o‘ziga xos, mo‘jizaviy hislatlari bo‘lgan. Yuqoridagi baytda oshiqning hijron iztiroblari, qalb kechinmalari ifoda etilib, “baloyi hajr” chekmay turib, ma‘shuqa vasliga yetish mumkin emasligi aytiladi. Oshiqqa Ayyubni o‘rnak qilib ko‘rsatadi.

«Osoyish bazmi» va «baloyi hajr» bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi orqali esa tazod san‘ati yaratilgan. Shoirning ushbu misralaridan visol bazmini, osoyishtalikni istagan ko‘gil borki, Ayyub (a.s.) dek balolarga, hijronlarga sabr etishi lozimdir demoqchi bo‘ladi. Bu baytda Ayyub payg‘ambar sabr-toqat timsoli sifatida kelgan. Mumtoz adabiyotda, asosan, oshiq-ma‘shuq-raqib obrazlarini uchratamiz. Deyarli barcha mumtoz she‘rlarimizda shu obrazlar bir xil syujet ostida beriladi. Ya‘ni ma‘shuqa oshiqning yonib-kuyishlariga beparvo, unga shavqat qilib bir bora bo‘lsa ham e‘tibor qaratmaydi. Oshiq esa oy-u yillar o‘tsa ham, shuncha hijron azoblarini pisand qilmay ma‘shuqasining vasliga intilib yashaydi. Yuqoridagi baytda shunga ishora qilgan holda, ma‘shuqaning muhabbatiga erishish uchun oshiq ham Ayyub payg‘ambar kabi sabr qilishi kerakligi aytiladi. Tasavvufda ham sabr inson uchun eng oliy hislat ekanligi ta‘kidlangan.

Ayyub (a.s.) bilan bog‘liq baytlarga tasavvufiy ohanglar singdirilgan bo‘lib, ularda shoir ilohiy yor visoliga erishish uchun oshiq ko‘pdan-ko‘p ruhiy qiynoqlar va azoblarga sabr bilan bardosh berishi, ana shundagana haqiqiy maqsadga erishish

⁶ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар IV жилдлик, I жилд. Девон. Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти., Т. – 1971, 392-б. 291-бет.

mumkinligani aytadi. Shoir bunda an’anaviy Ayyub (a.s.) obrazining o‘ziga xos talqinini yaratadi.

“**Лутфинг хўб эрур**” deb boshlanuvchi g‘azalida:

Эй кўнгул, васл истасанг сабр эт балоу дардға –

Ким, муқарраб тангриға бу шевадин Айюб эрур⁷.

Ogahiy bu misralarda ham yuqoridagi baytdagi kabi, lirik qahramonning ko‘ngliga qarata muhabbat va visol yo‘lida Ayyub (a.s.) dek, “balou dardg‘a” sabr etish kerakligi va shu yo‘l bilan ezgu maqsadga yetish mumkinligini ta’kidlaydi. Ayyub (a.s.) sinovlarga sabr etish orqali Haqqa yaqinlashadi. Zero, sabr maqomida bo‘lgan kishi oqibat istagiga etadi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, sabr-faqrдан keyingi so‘nggi maqom. Sabrning bir necha xil ko‘rinishlari bor: Toat-ibodatni ado etish – sabr demakdir. Havoyi nafs xohlab turgan gunohlarni qilmaslik – sabr. Balo-ofatlar va musibatlarga taslim bo‘la qolmaslik – sabr. Sabrning oliy darajasi – fojea bo‘lgan paytdagi, birinchi zarba vaqtidagi sabr. Sabr barcha fazilatlarning asosidir. Shuning uchun ham Alloh Qur’onda mo‘minlarning asosiy sifatlaridan biri sabr ekanini qayta-qayta ta’kidlagan. Jumladan, “sabr” so‘zining Qur’oni karimda 70 dan ortiq o‘rinda zikr etilgani ham fikrimizga asos bo‘la oladi. Alisher Navoiy sabrda e’tiqod manzilini ko‘radi. Sobir kishining dodi, albatta, tangriga etadi... Sabr maqomi tasavvufda ham ruh ulug‘vorligi, qalb pokligi va axloq hurligini muhofaza etish vositasidir. Zotan, «sabr et balou dardg‘a» kabi teran iboralarning mohiyatini Ogahiyning mislsiz sabr-qanoatli hayoti, e’tiqodi va shoir ruhining ulug‘vorligi, qalban pokligi bilan mushtarak holda tushunmoq kerak.

Shoir “**Махбуб хўб**” nomli g‘azalining baytida quyidagicha ta’kidlaydi:

Ҳеч ким мандек тўза олмас жафоу жавринга –

Ким, бало анвоъига сабр эткали Айюб хўб⁸.

Umuman, Ogahiy lirik merosidagi Ayyub payg‘ambar obrazi kishini qalb, yurak, ishq, e’tiqod kabi mavhum tushunchalarning mohiyatini to‘la

⁷ Муҳаммад Ризо Эрнийзбек ўғли Огаҳий. Асарлар IV жилдлик, I жилд. Девон. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти., Т. – 1971, 392-б. 203-бет

⁸ Ўша асар. 102-бет.

anglab yetishga undashi bilan birga iroda mustahkamligani ta'min etishda katta o'rin tutadi. Ayyub payg'ambar obrazi atrofiga shoir xilma-xil ma'nolarni jam etib, ular orqali kishi ma'naviy yuksakligini kuylagan. Bu kabi she'rlarni o'qib mulohaza qilgan kishi har qanday qiyinchilik qoshida mustahkam iroda bilan turishga ruhan quvvat topa oladi. Ogahiy lirik merosidagi Ayyub (a.s.) obrazi xilma-xil ma'nolarni o'zida mujassam etib, ular orqali kishi ma'naviy yuksakligini kuylagan. Bu kabi she'rlarni o'qib, mulohaza qilgan kishi har qanday qiyinchilik qoshida mustahkam iroda bilan turishga ruhan quvvat topa oladi.

- Ogahiy lirik she'riyatida an'anaviy obrazlar vositasida go'zal poetik lavhalar yaratildi. Lirik qahramonning orzu hayollarini, kayfiyati, kechinmalarini, ruhiy-ma'naviy olamini ifodalashda mazkur obrazlar muhim o'rin tutadi. Ular orqali oshiqning zohiriy va botiniy sifatlari, pokiza insoniy tuyg'ulari ulug'lanadi.

- Xullas, Ogahiy she'riyatida diniy-tarixiy obrazlar shoirga hayotni terang falsafiy tadqiq etish, badiiy tasvirlash uchun boy fikr, g'oyalar taqdim etgan. Shoir mushohadasida sayqal topgan bu obrazlar romantik bo'yoqlarni kuchaytirish, sodda va ravon uslubni namoyon bo'lishida, chuqur falsafiy xulosalarni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Мухаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар IV жилдлик, I жилд. Девон. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти., Т.: – 1971, 392-б.
2. Кароматов Х. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1993. – 96 б.
3. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. К.1. – Т.6 Ўрта ва олий мактаб, 1963. – 739 б.

VISION OF ADMINISTRATIVE AND LAW ENFORCEMENT IN THE SYSTEM OF INTERNAL AFFAIRS BODIES, DUTIES AND OBLIGATIONS.

Zokirov Shohruxbek Zohidjon o‘g‘li

Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi.

shohruxzokirov2320@gmail.com

ANNOTATION

In this article, the administrative and legal reforms implemented by the Ministry of Internal Affairs, the decisions and laws being developed, the tasks and obligations set before them, as well as the opportunities and achievements created for the employees of the Ministry in the performance of their duties in this direction personal opinions are expressed about the results data.

Key words: Ministry of Internal Affairs, Internal Affairs bodies, Reforms, New Uzbekistan, Crime prevention, Measures.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDA MAMURIY-HUQUQ IJROSINI TA‘MINLASH, VAZIFALAR VA MAJBURIYATLAR.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ichki ishlar vazirligi organ idoralari tomonidan amalga oshirilayotgan ma'muriy-huquqiy islohotlar, ishlab chiqilyotgan qaror va qonunlar, ular oldiga qo‘yilgan vazifalar va majburiyatlar shuningdek ushbu yo‘nalishda o‘z vazifalarini bajarishda vazirlik hodimlari uchun yaratilgan imkoniyatlar va erishilyotgan natijalar haqida ma'lumotlar to‘g‘risida shaxsiy fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ichki ishlar vazirligi, Ichki ishlar organlari, Islohotlar, Yangi O‘zbekiston, Huquqbuzarliklar profilaktikasi, Chora tadbirlar.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasida jamiyatning huquq manfaatlarini himoya qiluvchi va ular o'rtasida o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi majburlov aparatlari mavjud bo'lib bulardan biri Ichki ishlar vazirligi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi — O'zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyati organi hisoblanib, vakolatlari o'z doirasida fuqaro va inson erkinligi va huquqlarini himoyalashda davlat boshqaruvini amalga oshiradigan, huquq-tartibotni saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va bevosita O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari va Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradi.

Mamlakatimizda o'tgan yillar mobaynida inson huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalq hokimiyatchiligi prinsipining muhim qoidalaridan biri sifatida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilab qo'yildi (13-modda).

Ta'kidlanganidek, mustaqillikning dastlabki yillari respublikamizda murakkab vaziyat, davlat va jamiyat manfaatlariga qarshi sodir etilgan tajovuzlar, ayniqsa, uyushgan jinoyatchilikning avj olgani ushbu illatlarga barham berish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashni taqozo etardi. O'sha davrda ichki ishlar idoralarning asosiy kuch va vositalari huquq-tartibotni mustahkamlash, fuqarolar hayotiga xavf solayotgan turli ko'rinishdagi jinoyatlarning oldini olishga yo'naltirildi. Tizimdagi islohotlarning dastlabki bosqichida Ichki ishlar vazirligi tuzilmalari faoliyati qaytadan tashkil etilib, faoliyati kuchaytirildi.

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash,

huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallaydi.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, yurtimizda jinoyatchilikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik imkonini berdi.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ichki ishlar organlari oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish davrida ichki ishlar organlari tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlarning 1-bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017 yil 14 apreldagi PF-5005-son** farmoni asosida boshlanib, bu borada **13 ta qonun, Prezidentning 9 ta farmoni, 40 ta qarori va 3 ta farmoyishi, 115 ta Hukumat qarorlari, 167 ta idoralararo hujjatlar qabul qilindi.**

Ichki ishlar organlarining boshqaruv tizimi to'liq maqbullashtirilib, **85 foiz (ilgari 54 %)** shaxsiy tarkib bevosita aholi uchun qulay joylarda xizmat qilinishi ta'minlandi. Buning uchun har **35-40 ming** aholiga faoliyat ko'rsatadigan qo'shimcha **261 ta yangi (ilgari 108 ta)** ichki ishlar bo'limlar (GOM) tashkil etildi.

Yirik bozorlar, savdo majmualari va aholi gavjum joylarda mahalliy byudjet hisobidan 41 ta yangi ichki ishlar bo'linmalari tashkil etildi.

Har bir rahbar va xodimning jinoyatchilikka qarshi kurashishga bo'lgan qarashi tubdan o'zgardi. Ularning kundalik xizmat faoliyati raqam va foizlar orqasidan quvish

emas, balki fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish birinchi navbatdagi vazifaga aylandi.

Ichki ishlar organlari aholining tinch va farovon hayot kechirishini ta'minlash, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, shuningdek boshqa hayotiy muhim vazifalarni amalga oshirishda alohida o'rin egallaydi. Mustaqillik yillarida ichki ishlar organlarini jazolovchi, nazorat qiluvchi organdan xalq, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladigan tuzilmaga aylantirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi.

O'tgan davr mobaynida olib borilgan tizimli chora-tadbirlar yakuni bo'yicha jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va aholi xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan natijalarga erishildi. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy sohalarini huquqiy jihatdan tartibga solishga yo'naltirilgan **“Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”, “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”**gi qonunlar qabul qilindi.

Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, ularning vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini qonun darajasida belgilash, ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish maqsadida o'tgan yilning sentyabr oyida **“Ichki ishlar organlari to'g'risida”**gi Qonun qabul qilindi.

Biroq, mazkur Qonun talablarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlari, shuningdek fuqarolarning ichki ishlar organlari faoliyatiga doir murojaatlarini o'rganish sohada hamon o'z yechimini kutayotgan ko'plab muammo va masalalar mavjudligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojaatlar tahlili ichki ishlar organlari faoliyatini

tanqidiy qayta ko‘rib chiqish va tubdan takomillashtirish zarurligidan dalolat bermoqda.

Milliy va xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, jinoyat va boshqa huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda texnika vositalaridan foydalanish, huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs ustidan nazoratni kuchaytirish kabi an’anaviy chora-tadbirlar jinoyatchilik darajasini kamaytirishda har doim ham kutilgan natijalarni bermayapti. Bu esa, o‘z navbatida, huquqbuzarliklar profilaktikasida yangi ish uslublarini qo‘llash, aholi va jamoatchilik bilan yaqin muloqotni yo‘lga qo‘yish, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, shuningdek zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish lozimligini ko‘rsatmoqda. Bularning barchasi tabiiyki mamlakatimiz va xalqimizning tinchligi, farovonligi va kelajagi uchun amalga oshirilayotgan islohotlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. iiv.uz
2. Lex.uz
3. Yuz.uz
4. Zohidjon o‘g‘li Z. S. JAMIYATNING HUQUQIY SOVODXONLIGINI OSHIRISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 7. – №. 1. – C. 55-58.
5. constitution.uz
6. Wikipedia.org
7. Zokirov S. Z. HUQUQDA" SENZ" TUSHUNCHASI //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – T. 2. – №. 7.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA
O‘RGATISHDA “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI”
DARSLARINING IMKONIYATLARI**

Ergasheva Sayyora Xasanovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Xolboyeva Aziza Rustamovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning dolzarbligi va ahamiyati, mustaqil fikrlash o‘quvchining hayot faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishi, shuningdek, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish imkoniyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fikrlash, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich sinf, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsi, darslik, konsepsiya, kompetensiya.

Abstract: in this article, the relevance and importance of teaching students to think independently, the importance of independent thinking in the student's life, as well as the teaching of primary school students to independent thinking based on the science of "Mother language and reading literacy" training opportunities are highlighted.

Key words: thinking, independent thinking, critical thinking, elementary school, "Mother language and reading literacy" lesson, textbook, concept, competence.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini, xususan, umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganligi barchamizga ayon. Chunki davlatning kelajagi, ertangi taraqqiyoti bugun umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan yoshlar qo'lida. O'quvchi yoshlarni mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, jamiyatda sodir bo'layotgan vaziyatlarga o'z munosabatini bildiradi oladigan, olgan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay oladigan shaxs qilib tarbiyalash barchamizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712 sonli farmoniga ko'ra qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da quyidagilar xalq ta'limi tizimining strategik maqsadlari etib belgilangan:

- umumta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imoniyatlarini yaratish;

- kichik yoshdagi o'quvchilarda o'qishga sog'lom kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish va boshqalar.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim va tarbiya berish, ularda ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishni talab etadi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish muammosi har doim dolzarb bo'lib kelgan. Bu borada izlanish olib borgan adabiyotshunos olimalaridan biri Q. Husanbayeva “Mustaqil fikrlash – insonning o'z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, o'z intellektual imkoniyati darajasida turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir”, deb ta'kidlaydi.

Boshlang'ich ta'limda, asosan, o'quvchining ongiga savodxonlik asoslari va hisoblash tafakkuri elementlarini singdirishdan iborat jarayon yetakchilik qiladi.

Demak, bu davrdagi savodxonlik uzluksiz ta’lim tizimining keyingi bo‘g‘inlarini intellektual salohiyatli bo‘lishligiga mustahkam zamin yaratadi.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda o‘tiladigan darslar o‘quvchini mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan. Shu kabi fanlardan biri “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani bo‘lib, ushbu fan o‘quvchilarda yod olish, ko‘chirib yozish, olingan bilimlarni takrorlashdan xoli bo‘lgan, butunligicha o‘quvchini mustaqil fikrlashga, mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi mavzulardan iborat darsliklardan foydalanilgan holda o‘tilmoqda.

Quyida 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida berilgan Anvar Obidjonning “Oqshom” she’rini o‘rganish jarayonini tahlil qilamiz.

Bir piyola choy kabi

Bulut oyni ho‘pladi.

Tovuq beka katakka

Jo‘jalarin to‘pladi.

Echki-uloq tush ko‘rib,

Poxol uzra yotishar.

Mushukchalar sut so‘rab,

Onasiga yopishar...

Ushbu she’rni o‘rgangach o‘quvchilar “She’r nima haqida?”, “Sizga she’rning qaysi qismi hammasidan ko‘ra ko‘proq yoqdi? Nima uchun?”, “Siz she’rga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?”, “Ayting-chi, bir piyola choyni ho‘plash bilan bulutning oyni ho‘plashi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?” kabi savol va topshiriqlarga javob berishlari lozim bo‘ladi. Bu savol va topshiriqlar o‘quvchilarni she’rda berilgan ma’lumotlarni qaytarishga emas, balki mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish asosida javob berishlariga zamin yaratadi. Shuningdek, ushbu she’rni o‘rganishda o‘qituvchi “Siz oqshom tushgach tabiatda bo‘lgan o‘zgarishlarni kuzatganmisiz?”, “Ona zaminga oqshom tushgach o‘simliklarda qanday holatlar kuzatiladi?”, “Siz oqshom nimalar bilan mashg‘ul bo‘lasiz?” kabi savollar bilan ham murojaat qilish orqali o‘quvchilarni yanada kuzatuvchanlikka, olgan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish kompetensiyasini hosil qilishga, mustaqil fikrlashga undash mumkin bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, o‘quvchi-yoshlarni Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shuvchi, har tomonlama barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarining imkoniyatlari nihoyatda kengdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-5712 son. 29.04.2019 yil. <https://lex.uz>.
 2. Azimova I va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. –T.: Respublika ta’lim markazi, 2021
 3. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.- 12 b
- Utanbayeva, D. A. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona tili ta’limi jarayonida mustaqil fikrlashga o‘rgatish. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 236-239).

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	
	<p>YANGI O‘ZBEKISTONGA KUCHLI NOTIQLAR KERAK <i>Isroilov Azizbek Tojimamat o‘g‘li</i> Page No.: 3-8</p>
2	
	<p>YOSHLARNING ADABIYOTGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISHDA BERDAQ ASARLARINING O‘RNI <i>Utebaeva Baxargul Umirbay qizi</i> Page No.: 9-13</p>
3	
	<p>IMOM AL-BUXORIYNING “AL-JOME AS-SAHIH,, ASARI ASOSIDA HADISLARINING PSIXOLOGIK TASNIFI <i>Muhitdinova Parvina Tohirovna.,</i> <i>Aliyeva Mohinur G‘ani qizi</i> Page No.: 14-18</p>
4	
	<p>КУЗГИ САВРИНЖОН (COLCHICUM AUTUMNALE L) ЎСИМЛИГИ ВА УНИНГ ДОРИВОРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ <i>Ибрагимова Шахруза Шуҳрат қизи</i> Page No.: 19-21</p>
5	
	<p>TIRIK TABIAT TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI. <i>Otabekova Sayyora Suyunboyevna</i> Page No.: 22-25</p>
6	
	<p>VOLEYBOLCHILARNING SAKROVCHANLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARNING AHAMIYATI <i>Eryigitov D.X., Eshbekova N.K</i> Page No.: 26-29</p>
7	
	<p>VOLEYBOL O‘QITUVCHISINING KO‘NIKMALARI VA USLUBI <i>Eryigitov D.X., Eshbekova N.K</i> Page No.: 30-34</p>

8

SPORT TURLARIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA SIFAT DARAJASINI OSHIRISH VOSITALARI

Isoqov Jamshid Zikrullayevich

Page No.: 35-39

9

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Jalolova.Z.S

Page No.: 40-44

10

O‘QUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASHNING ILMIIY AMALIIY ASOSLARI

Lutpullayev.B.I

Page No.: 45-48

11

SHARQ YAKKAKURASH TURLARI BO‘YICHA TRENERNI KASBIY TAYYORGARLIGI XUSUSIYATLARI

O‘rozbayev.J.T

Page No.: 49-53

12

SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA AMIRLIKDAGI HUNARMANDLAR JAMIYATI HAQIDA

Abdullayeva Nargiza Abduxalimovna

Page No.: 54-58

13

ANOR YETISHTIRISHNING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI

Usmonqul Islomov., Iroda Rahmonova

Page No.: 59-61

14

ORTOSIFON (ORTHOSIPHON STAMINEUS BENTH) O‘SIMLIGINING BOTANIK TUZILISHI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Fayziyeva Marjona Amrulloevna., Mamatkulova Iroda Ergashovna

Page No.: 62-65

15

ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ВЛАСТИ И МУСУЛЬМАНСКОГО ДУХОВЕНСТВА КАРАКАЛПАКСТАНА В 1917-1918- ГОДЫ

Зинатдинов Нуратдин Кобейсинович

Page No.: 66-71

16

**ISHLAB CHIQARISH MUHITIDA INSON OMILINI HISOBGA OLGAN
HOLDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

Jasmina Lochinbek qizi To‘lasheva

Page No.: 72-76

17

**BOLALAR XULQ-ATVORIDAGI MUAMMOLARNI TUZATISHDA
ERTAK TERAPIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Qo‘chqarova O‘g‘iljon Umar qizi., Muyassar Xamidova

Page No.: 77-81

18

**HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE‘RIYATIDA SINONIMLARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.**

G‘aybulloyeva Umida Ahmatovna

Page No.: 82-86

19

**MASOFAVIY O‘QITISH TIZIMINI INGLIZ TILI TA‘LIMIGA JORIY
QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

Eshchanov Marat

Page No.: 87-91

20

AWARENESS-RAISING STRATEGIES FOR LEARNERS' DIVERGENCE

Mardona Yuldoshboyeva

Page No.: 92-94

21

**ZAMONAVIY BIOLOGIK TADQIQOTLARDA BIOINFORMATIKANING
AHAMIYATI**

Meliboyev Ilhomjon Abduraxmon o‘g‘li.

Page No.: 95-98

22

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR VA ULARNI INKLYUZIV
TA‘LIMGA JALB ETISH.**

Nizamova Malika Ravshan qizi

Page No.: 99-105

23

**YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH
DOLZARB MASALALARI**

Keldiyorov Azizbek Ziyodulla o‘g‘li., Imomova Gavhar Karimovna

Page No.: 106-111

24
SYNTACTICAL EXPRESSIVE MEANS AND STYLISTIC DEVICE <i>Kamalova Nigora</i> Page No.: 112-115
25
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASH SHART-SHAROITLARI <i>Qilicheva Nigina., Murodova Ug‘iloy</i> Page No.: 116-119
26
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MATN BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH <i>Primova Nafisa Xusanovna</i> Page No.: 120-122
27
BOSHLANG‘ICH SINF “MATEMATIKA” DARSLARIDA VAQTGA DOIR MASALALARNI O‘RGATISH METODIKASI <i>Xayriyeva Maxliyo Pardayevna</i> Page No.: 123-125
28
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI TALABLARI ASOSIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI TAYYORLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH (PIRLS bo‘yicha) <i>Hamrayeva Matluba Olim qizi</i> Page No.: 126-128
29
OGAHIY G‘AZALLARIDA TALMEH SAN‘ATINING O‘RNI <i>Ashurova Hamida Aliyor qizi</i> Page No.: 129-133
30
VISION OF ADMINISTRATIVE AND LAW ENFORCEMENT IN THE SYSTEM OF INTERNAL AFFAIRS BODIES, DUTIES AND OBLIGATIONS. <i>Zokirov Shohruxbek Zohidjon o‘g‘li</i> Page No.: 134-138
31
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARINING IMKONIYATLARI <i>Ergasheva Sayyora Xasanovna., Xolboyeva Aziza Rustamovna</i> Page No.: 139-142